O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASİ XALQ TA'LİMİ VAZİRLİGİ

AJİNİYoZ nomidagi NUKUS DAVLAT PEDAGOGİKA İNSTİTUTİ

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK*

**ALDJANOVA GULJAHAN AMANGELDİEVNA**

# MAVZU: «MUSTAQİL DAVR PSİXOLOGİYaSİ va YoShLAR XARAKTERİ»

5A 140802 -«Psixologiya» mutahassisligi

**MAGİSTR AKADEMİK DARAJASİNİ**

**OLİSh UChUN YoZİLGAN DİSSERTATsİYa**

İlmiy rahbar: p.f.n.,dots. A.Urumbaeva

Nukus - 2012

Mavzu: «MUSTAQİL DAVR PSİXOLOGİYaSİ va YoShLAR XARAKTERİ»

# R E J A :

KİRİSh

I-bob: PSİXOLOGİYa FANİDA XARAKTER MUAMMOSİ
1.1. Shaxs xarakterining psixologik tarifi
1.2. Xarakterni o‘rganish tarixi va bu boradagi psixologik nazariyalar
1.3. Xarakter to‘zulishi va muhim sifatlari
1.4. Xarakter aktsentuatsiyasi
1.5. Xarakterning shakllanishi
1.6. Milliy xarakter haqida
*1-bob buyicha xulosalar*

2-bob: MUSTAQİL DAVR PSİXOLOGİYaSİ NEGİZİ – TARBİYaDİR
2.1. Hozirgi zamon tarbiya jarayoni xususiyatlari
2.2. Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari
2.3. Xarakterni shakllantirish–shaxsni tarbiyalashning asosiy yunalishi sifatida
*2-bob buyicha xulosalar*

3-bob: HOZİRGİ ZAMON YoShLARDAGİ XARAKTER SİFATLARİ PSİXOLOGİK XUSUSİYaTLARİNİ TADQİQ QİLİShNİNG TAJRİYBA NATİJALARİ
3.1. Eksperiment bosqichlari va metodlari
3.2. Komil inson va uning sharqona fazilatlari
3.3. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash
3.4. Xarakterni o‘rganish buyicha amaliy metodikalar
*3-bob buyicha xulosalar*

UMUMİY XULOSALAR va TAVSİYaLAR
FOYDALANGAN ADABİYoTLAR
İLOVALAR (slaydlar)

# KİRİSh

**Tadqiqotning dolzarbligi va yangiligi:** Mustaqil O‘zbekiston respublikasida 20 yilliq qisqa vaqt ichida juda katta ijtimoyi – siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar ro‘y berdilar. Bu o‘zgarishlar mamlakatimiz fuqarolarining manaviyati va ruhiyatiga sezilarli tasir qilmoqda. Hozirgi davrda iqtisodiyot hamda madaniyatning tez va uyg‘un rivojlanish sharoitida jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va oliy boyligi bo‘lmish inson shaxsini yanada kamol toptirish manfaatlari yosh avlodga talim-tarbiya berishta yangicha, yana ham keng ko‘lamda yondoshishni talab qiladi. Chunki O‘zbekiston tarixida yangi davr boshlandi. O‘z istiqlol va taraqqiyot yulini tanlab olgan O‘zbekiston Respublikasi siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka intilib, manaviy mustaqillikni ham taminlashga intilmoqda.

O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yuliga qadam qo‘yishi boshida manaviyat borasida sovet tuzumi davrida qayta qo‘rish (perestroyka) deb ataladigan davrda shakllangan manaviy inqiroz, parokandalik tasirida malum qiyinchiliklarga duch kelindi. Xususan, katag‘onlik va turg‘unlik yillarida, manaviyatimizda, insoniy qadr-qimmatimizga darz ketdi. Birovlarning nojuya hatti-xarakatilarini ko‘rib ko‘rmaslikka olindi, yoshlar tarbiyasiga beparvo qaraldi. Shuning uchun ham Prezidentimiz adabiyot, sanat xodimlari, ziyolilarimiz bilan uchrashuvlarda mafkuraga va manaviyat masalalariga jiddiy etibor berishga chaqirgan edi.

Malumki, o‘zbek halqi o‘zining boy manaviy merosiga ega. Bu o‘tmishning yutug‘idir. Prezidentimizning «Millatimiz chuqur ildizga ega - bu bizning boyligimiz»,- degan so‘zlari halqimizning ming yillik manaviy ildizini ko‘zda tutadi. Manaviy merosni to‘la, odilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodlarning vazifasidir. Xalqimizning manaviy madaniyati va dunyoqarashini, manaviy extiyojsiz, manaviy qadriyatlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bular, halq og‘zaki ijodi, dunyoviy ilm sohiblari va kamoli, ilm sohiblari merosi kabilardir. Hozirgi zamon yoshlarining manaviy madaniyatini va ularda qadriyatlarimizni ezozlash ro‘hini tarkib toptirishning ahamiyati katta.

Bugungi kunda inson psixologiyasini bilish, o‘z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga

yaroqlilikni, turli oʻzgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni taminlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, roʻy berayotgan jarayonlarni obektiv va toʻgʻri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosi ilgari soʻrildi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan oʻz ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk **Suqrot** oʻz davrida «Oʻzingni bil!» degan shiorni oʻrtaga tashlagan edi. Yangi davr bu bilimlar yoniga «Oʻz yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil», degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qoʻydi. Ayni shu muammoni echishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

Malumki, psixologiya fanining oʻrganadigan jarayonlari va xodisalari murakkab va xar xil. Biz bilamiz, insonlar bir-biridan qator taraflari bilan farq qilishadi. Jumladan, qobiliyati, xarakteri, temperamenti, qiziqishlari, irodaviy sifatlari, xis-tuygʻulari, ijtimoyi ustanovkalari va hokazo.

Biz yuqorida koʻrsatib oʻtgan shaxsning individual-psixologik xususiyatlarning hayotimizdagi ahamiyati joʻda ham katta. Ular bizning jamiyatta ega boʻlgan mavqeimiz, hurmat-etiborimiz, ishdagi va oʻqishdagi yutuklarimiz, inson sifatidagi kiyofamizni, kim ekanimizni, kerak boʻlsa, oʻzligimizni belgilaydi. Kim bilan va kayerda uchrashmaylik, shu insonning bugungi holati, kayfiyati, bizga va biz bildiradigan fikrlarga munosabati, hamkorlikta ishlash istaklariga har doyim itibor beramiz va bu masala biz uchun muhim ahamiyatni kasb etadi. Demak, individual-tipologik xususiyatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas qismi boʻlib, idrok etishimizning, xotiramizning va tafakkurimizning yunaltirilgan ahamiyatli predmetidir. Chunki, huddi shular bizning har hil faoliyatlarimizni amaliyotga tadbiq qilishga va ishlarimizni bajarishimizdagi individual uslubimizga bevosita bogʻlik boʻladi.

Eng kadimgi davrlarding oʻzida-yoq olimlar insonlarning hulq-atvoridagi tashqi sifatlarni koʻzatish jarayonida ularda katta xususiyatlarning mavjud ekanligiga etibor qaratgan. Bunday yakka xususiyatlar psixologiya fanida **xarakter** (grek til. «belgi, sifat, xususiyat») deb nomlanadi. Bu haqidagi ilk malumotlarni qadimgi Gretsiyada

(b.e.a. 5-4 asr) hayot so‘rgan faylasuf olim Teofrast o‘zining ilmiy traktatlarida ko‘rsatib o‘tgan.

Kundalik hayotimizda va tilimizda «xarakter» so‘zi eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlardan. Uni biz doimo birovlarga baho bermoqchi bo‘lsak, ishlatamiz. Bu so‘zning manosini olimlar «bosilgan tamg‘a» deb ham izohlashadi. *Xarakter deganimiz o‘zi nima?* Tamg‘alik alomatlari esa nimada ifodalanadi?

*Xarakter - shaxsdagi shunday psixologik, subektiv munosabatlar majmuiki, ular uning borliqqa, odamlarga, predmetli faoliyatga hamda o‘z-o‘ziga munosabatini ifodalaydi.* Demak, «munosabat» kategoriyasi xarakterni tushuntirishda asosiy hisoblanadi. Buyuk rus psixologi B.F.Lomovning tabiricha, *xarakter shaxs ichki dunyosining asosini tashkil etadi* va uni o‘rganish katta ahamiyatga ega.

Ayniqsa, ushbu masalani mustaqil davr psixologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan yoshlar xarakterini urganish muammosi oldingi davrlarga nisbatan yuqori darajaga ko‘tarildi. Chunki Prezidentimiz İ.A.Karimov taqidlab utkanidek, hozirgi zamonning asosiy talabi – aqilli va har taraflama etuk yoshlarni, komil insonlarni tarbiyalashdan iborat. Ananaga aylanib qolgan xodisalardan biri shuki, psixologiya va u o‘rganadigan xodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug‘ullanadigan olimlar o‘rganib kelishgan, zero, psixologik xodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo‘lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o‘zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik xodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda yoshlarni yuksak manaviy g‘oya va milliy urf-odat, ananalar asosida tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan. Yuksak manaviy g‘oya va urf-odatlar ko‘lami nixoyatda keng va serqirra bo‘lib, ulardan eng muhimlari: iymonlilik, Vatanni sevish, insonparvarlik, do‘stlik, urtoqliq, birodarlik, ongli intizom, ijtimoiy faollik, xalol mexnat, oila, davlat va jamiyat oldidagi bo‘rchni anglash, tinch totuv yashash uchun ko‘rashish, ho‘rfikrlilik kabilar. Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning hammasi biz tanlagan magistrlik dissertatsiya ishining dolzarbligin va ahamiyatliligin ko‘rsatadi.

**Muammoning tadqiq qilinganlik darajasi:** Albatta, xarakter muammosi psixologiyada keng va chuqur tadqiq qilingan mavzu. Uni o‘rganishda qator olimlar o‘z davrlarida ilmiy ishlarin olib borganlar hamda beybaxo asarlarin meros sifatida qoldirganlar (Aristotel, Platon, Teofrast, Abul-Faraj Bar Ebrey, İogann Kaspar Lafater, Frents Gall, E.Krechmer, U.Sheldon, Ch.Lombrozo, Ch.Darvin, D.Makkleland, K.Leongard, P.P.Blonskiy, B.F.Lomov, A.G.Kovalev, V.N.Myasishev, V.S.Merlin, S.L.Rubinshteyn, A.Lichko, N.D.Levitov va boshqalar). Munosabatlarning xarakterdagi o‘rni xususida fikrlar ekan, **V.S.Merlin** ularning mazmunida ikki komponentni ajratadi:

- *emotsional-kognitiv* — borliq muhitning turli tomonlarini shaxs qanday emotsional xis qilishi va o‘zida shu olamning emotsional manzarasini yaratishi;
- *motivatsion-irodaviy* — malum xarakatlar va xulqni amalga oshirishga undovchi kuchlar. Demak, bizning munosabatlarimiz malum mano va mazmun kasb etgan munosabatlar bo‘lib, ularning har birida bizning xissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon bo‘ladi.

Mashhur rus olimi, psixologiya fanining metodologiyasini yaratgan **S.L. Rubinshteyn** shaxsning o‘ziga xosligi va xarakterologik tizimda uchta asosiy tuzilmalarni ajratgan edi:

- *Munosabatlar va yo‘nalish* shaxsdagi asosiy ko‘rinishlar sifatida — bu shaxsning hayotdan nimani kutishi va nimani xohlashi.
- *Qobiliyatlar* ana shu tilak-istaklarni amalga oshirish imkoniyati sifatida — bu odamning nimalarga qodir ekanligi.
- *Xarakter* imkoniyatlardan foydalanish, ularni kengaytirishga qaratilgan turg‘un, barqaror tendentsiyalar, yani bu odamning **k i m** ekanligi.

Bu nuqtai nazardan qaraganda ham, **xarakter** shaxsning «tanasi», borligi, konstitutsiyasidir. Xarakterning boshqa individual psixologik xususiyatlardan farqi shuki, bu ***xususiyatlar ancha o‘zgaruvchan*** va ***dinamik, orttirilgandir.*** Shuning uchun ham maktabdagi talimdan oliy o‘quv yurtidagi talimga o‘tish xodisaning o‘zi ham o‘spirinda malum va muhim o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

**Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlar rejalari bilan bog‘liqligi:** Bu tadqiqot ishi davlatimiz talim tizimidagi islohotlarning asosiy yunalishlari bo‘lib

xisoblanadigan oliy talim yunalishi bilan, shu jumladan, «Talim haqida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» hamda 2012 yili qabul kilingan «Mustaxkam oila yili» davlat dasturi asosida oliy talim muassasalari talaba yoshlarini tarbiyalash masalalari buyicha tasdiklangan ilmiy-tadqiqot ishlarning rejalari bilan bevosita bog'lik. Shuningdek, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti «pedagogika va psixologiya» kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan o'zviy bog'lik.

**Tadqiqot predmeti** – Mustaqil davr psixologiyasi va yoshlar xarakteri.

**Tadqiqot obekti** – Nukus davlat pedagogika institutidagi talim-tarbiya jarayoni va talaba yoshlar.

**Tadqiqot ishining maqsadi** – mustaqil davr psixologiyasi xususiyatlarini ko'rsatish, shuningdek, xarakter muammosini, ayniqsa, talaba yoshlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ishida kuyidagi **ishchi gipoteza** ilgari so'rildi: mustaqil davr psixologiyasi o'ziga xos xususiyatlariga ega va uni tadqiq hamda tahlil qilish talim jarayonida yoshlar xarakterini tarbiyalash uchun bugungi kunda dolzarb muammo bo'lib xisoblanadi, jumladan, talabalarda ijobiy xarakter sifatlarini shakllantirish avallambor va faqatgina ularda milliy mustaqillik mafkurasi asosida ijtimoyi faollikni tarbiyalash bilan bevosita va uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

Maqsadga erishish hamda gipotezani tekshirib ko'rish uchun tadqiqot jarayonida kuyidagi belgilangan **vazifalarni** xal etishimiz zarur:

- ♦ muammo buyicha psixologik-pedagogik manbalarni, adabiyotlarni va malumotlarning *nazariy tahlilini tavsiya etish;*
- ♦ *psixologiya fanida xarakter muammosi*ni aniqlash maqsadida: shaxs xarakterining psixologik tarifi, xarakterni o'rganish tarixi va bu boradagi psixologik nazariyalar, xarakter to'zulishi va muhim sifatlari, xarakter aktsentuatsiyasi, xarakterning shakllanishi, milliy xarakter *haqida to'liq tushunchalarni berish va mulohazalar yuritish;*
- ♦ *mustaqil davr psixologiyasi negizi – tarbiyadir ekanligini* isbotlash maqsadida: hozirgi zamon tarbiya jarayoni xususiyatlari, mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari, xarakterni shakllantirish–shaxsni tarbiyalashning asosiy yunalishi sifatida kabi masalalarni *tahlil qilish va amaliy tavsiyalar berish;*
- ♦ *hozirgi zamon yoshlardagi xarakter sifatlari psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishning tajriyba natijalarini* ko'rsatish maqsadida: eksperiment

bosqichlari va metodlari, komil inson va uning sharqona fazilatlari, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xarakterni o‘rganish buyicha amaliy metodikalarni *taqdim etish.*

- dissertatsiya mavzusiga bog‘liq taqdimot materiallarini tayyorlash;
- dissertatsiya buyicha xulosalar chiqarish.

Dissertatsiya maqsadini va vazifalarin **amaliyotga tadbiq qilinishi** bosqichma-bosqich 2010-2012 yillari olib borildi. Tadqiqotning *barcha bosqichlarida* talim-tarbiya jarayonida pedagogik institut ish faoliyati ko‘zatilib borildi, hamda professor-o‘qituvchilar va talabalar bilan suxbat, anketa va test ishlari olib borildi. İlmiy adabiyotlarni va manbalarni o‘rganish asosida talaba yoshlar tarbiyasiga oid tadqiqotlarning xususiyatlari muammosini tahlil qilishning asosiy yunalishlari aniqlandi, talim muassasasi xujjatlarin tahlil qilish natijasida ularning pedagogik tajriybalari umumlashtirildi, pedagoglar kasbiy faoliyati ish mazmuni chuqur o‘rganildi. Olingan natijalarning to‘g‘riligi va ishonchligi oldimizga qo‘yilgan ishchi gipotezamizni isbotladi.

**Tadqiqotning ilmiy bazasi** sifatida Nukus davlat pedagogika institutining pedagogika fakulteti belgilandi. Tadqiqotta ushbu muassasaning o‘qituvchi-pedagoglari, mutaxassis-xodimlari, pedagogik jamoalar hamda talaba yoshlar qatnashdilar.

**İlmiy tadqiqotning metodologik asoslari qo‘yidagilardan iborat:** didaktika (talim nazariyasi), uning asosiy tamoyillari va kategoriyalari; bilish nazariyasi, psixologiyaning asosiy tamoyillari va kategoriyalari: jumladan, determenizm tamoyili, ong va faoliyatning birligi tamoyili, nazariya va amaliyotning bog‘liqligi tamoyili, talim-tarbiyadagi shaxsiy yunalltirilganlik tamoyili, talim-tarbiya haqidagi gumanistik psixologiyaning qonuniyatlari, L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy kontseptsiyasi, A.N.Leontev, V.A.Petrovskiy va boshqalarning shaxs nazariyalari, shuningdek, oliy maktab psixologiyasi, pedagogik psixologiya xususiyatlari muammosini tadqiq qilishgan etakchi rus va o‘zbek olimlarining g‘oyalari. Shuningdek, biz dissertatsiyamizda yosh avlodni tarbiyalashda Sharq mutaffakirlarining falsafiy va pedagogik qarashlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti İ.A.Karimovning har tamonlama barkamol, komil insonni tarbiyalash hakidagi fikrlariga, xususan, «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida»

(2011), «Yuksak manaviyat - engilmas kuch» (2008) asarlaridagi g‘oyalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi «Talim haqida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi», «Milliy Mustaqillik mafkurasi» hamda 2012 yili qabul qilingan «Mustahkam oila yili» davlat dasturidagi ko‘rsatmalarni boshchilikka olgan hamda ularga suyangan holda ish olib bordik.

İsh jarayonida yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida bir qator **ilmiy-tadqiqot metodlari** qo‘llanildi:

- İlmiy-psixologik adabiyotlarni, maxsus monografiyalarni, ommaviy axborot vositalari materiallarini hamda İnternet sayt malumotlarini o‘rganish va taxlil qilish metodi;
- Oliy o‘quv yurti, jumladan, pedagogika instituti professor-o‘qituvchilarining pedagogik tajriybalarini o‘rganish va umumlashtirish metodi;
- Oliy o‘quv yurtining, jumladan, pedagogika institutidagi talim-tarbiya jarayonni va talabalarni ko‘zatish metodi;
- Talaba-o‘quvchilar hamda o‘qituvchi-pedagoglar bilan so‘hbat va intervyu metodi;
- Tajriyba (eksperiment) va anketa metodlari;
- Test va faoliyat mahsulini tahlil qilish metodlari.

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati:** Olingan malumotlar va xulosalar hozirgi zamon pedagogika va psixologiya fanlaridagi mavjud bo‘lgan talaba yoshlar tarbiyasiga oid tadqiqotlar haqidagi tushuncha va nazariyalarni yanada to‘liqtirishadi va chuqurlashtiradi. O‘tkazilgan izlanishlar talim muassasalaridagi o‘qituvchi-pedagoglar ishlarining mazmuniga va talabalar faoliyatiga yangicha nuqtai nazari bilan yondoshishga imkoniyatlar to‘g‘diradi.

**Tadqiqotning amaliy zarurligi:** Dissertatsiya ishida yoritilgan materiallar oliy talim o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilariga, «pedagogika va psixologiya» talim yunalishidagi tahsil olayotgan talaba yoshlarga va barcha pedagog - o‘qituvchilarga ularning amaliy ishlarida zarur bo‘lib xisoblanadi.

**Tadqiqotning birinchi nazariy-izlanish bosqichi:** 2010-2011 yillarda olib borildi. Bunda muammoga oid falsafiy, psixologik, pedagogik yunalishidagi ilmiy

adabiyotlar, manbalar o‘rganib chiqildi, shuningdek, mavzu nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqotning maqsadi, mazmuni, vazifalari belgilab olindi.

**Tadqiqotning ikkinchi - tajriba bosqichi:** 2011-2012 yillarda o‘tkazildi, bu bosqichda tadqiqotning dasturi to‘zilib chiqildi, uning nazariy va amaliy asoslari, mazmuni, tajriba mashg‘ulotlarining shakl va usullari ishlab chiqildi. Tajriba natijalari tahlil qilindi, samaradorlik darajasi umumlashtirildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi** 2010-2012 yillar davomida Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti «Pedagogika va psixologiya» kafedrasining ilmiy-uslubiy va uquv-uslubiy seminar majlislarida, davlat pedagogik amaliyoti tajriyba ishlari jarayonida, pedinstitut magistrantlarining ilmiy anjumanlarida bayonat shaklida muhokama qilinib borildi. Tadqiqot natijalari va tavsiya etilgan metodik ko‘rsatmalar pedagogik oliy talim muassasalari o‘qituvchi pedagoglari hamda talaba yoshlar tarbiyasiga oid ishlarida foydalanilishi mumkin.

**Natijalarning nashr etilishi:** Dissertatsiya mavzusiga oid materiallar «O‘qituvchi va o‘zluksiz talim» (№4 soni, 2011 yil) respublika ilmiy-pedagogik va uslubiy jurnalida, jumladan, «Kadralar tayyorlash milliy dasturi va «Talim Qonuni»dagi psixologiya fani ahamiyati» mavzusida ilmiy maqola sifatida chop etildi, shuningdek, institut ko‘lamida 2012 yil 30-aprel - 3may kunlarida «Mustahkam oila yili»ga bag‘ishlangan «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi o‘tkazilgan ilmiy-nazariy anjuman majlisida «O‘smir davrining psixologik xususiyatlari» mavzusida ilmiy bayonat shaklida rasmiylashtirildi va nashrga chop etishga topshirildi.

**Dissertatsiyaning tarkibi va xajmi.** Dissertatsiya ishi: kirish bo‘limi, o‘chta bobtan, yakuniy bo‘limi, adabiyotlar ruyxati va ilovalardan iborat. Ko‘lami - 84 bet.

## I-bob: PSİXOLOGİYa FANİDA XARAKTER MUAMMOSİ

### 1.1. Shaxs xarakterining psixologik tarifi

*Psixologiyada xarakter muammosi.* **«Xarakter»** yunoncha so‘z bo‘lib «zarb qilish», «belgi qo‘yish» degan manoni bildiradi. Hakikatdan ham xarakter kishining jamiyatda yashab egallaydigan alohida belgilaridir. Shaxsning individualligi temperament singari xarakterda ham namoyon buladi. Xarakter – bu shaxsning faoliyat va muloqoti jarayonida tarkib topadigan va namoyon bo‘ladigan individual xususiyatlari bulib, individ uchun u tipik hulq-atvor xislatlari bulib xisoblanadi. Kishining shaxsi u nima qilayotgani bilan emas, balki uni qanday bajarayotgani bilan xarakterlanadi.

Xarakter kishi shaxsining yo‘nalishini belgilaydigan ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, kishining jamiyatdagi yuqori mavqei, amali, unda takkaburlik, kekkayganlik, riyokorlik, tamagirlik, munofiklik kabi salbiy xislatlarni shakllanishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, oddiy mehnatkash kishida jamiyatdagi mavqeiga qarab fidokorlik, maqsadga intilganlik, jasurlik, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanishiga olib keladi.

Kishining xarakterini tashkil etuvchi bu individual xususiyatlar birinchi navbatda **iroda**ga va **xis-tuyg‘ular**ga taalluqli bo‘ladi. Lekin malum darajada **aql**ga ham taalluqlidir. Qolaversa, xarakterning namoyon bo‘lishi kompleks yaratilgan narsa hisoblanadi va bir qator xollarda irodaviy, emotsional yoki intellektual jarayonlar qatoriga kirishga yo‘l qo‘ymaydi. **Xarakter** imkoniyatlardan foydalanish, ularni kengaytirishga qaratilgan turg‘un, barqaror tendentsiyalar, yani bu odamning **kim** ekanligi.

Bu nuqtai nazardan qaraganda ham, xarakter shaxsning «tanasi», borligi, konstitutsiyasidir. Xarakterning boshqa individual psixologik xususiyatlardan farqi shuki, bu xususiyatlar ancha *o‘zgaruvchan* va *dinamik*, *orttirilgandir.* Shuning uchun ham maktabdagi talimdan oliy o‘quv yurtidagi talimga o‘tish xolatning o‘zi ham o‘spirinda malum va muhim o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Umuman, konkret shaxs misolida olib qaraydigan bo‘lsak, har bir alohida obektlar, narsalar, hodisalarga mos tarzda xarakterning turli qirralari namoyon bo‘lishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Masalan, uyda (katta o‘zbek oilasi misolida

oladigan bo‘lsak) katta yoshli ota-onalar oldida o‘ta bosiq, ko‘nikuvchan, har qanday buyurilgan ishni etirozsiz bajaradigan kishi, o‘z kasbdoshlari orasida doimo o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lgan, gapga chechan, kerak bo‘lsa, qaysar, dadil bo‘lishi, ko‘chada, jamoatchilik joylarida beg‘am, loqayd, birov bilan ishi yo‘q kishiday tuyulishi, o‘ziga nisbatan esa o‘ta talabchan, lekin egoist, o‘z-o‘ziga bahosi yuqori bo‘lishi mumkin. Demak, xarakterning psixologik tizimini tahlil qiladigan bo‘lsak, uning borliqdagi obektlar va predmetli faoliyatga nisbatan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham psixologiyada **xarakterning quyidagi tizimi** etirof etiladi:

- *Mehnat faoliyatida namoyon bo‘ladigan xarakterologik xususiyatlar* — mehnatsevarlik, mehnatkashlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, ishga qobillik, masuliyat, dangasalik, qo‘nimsizlik va boshqalar.
- *İnsonlarga nisbatan bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xarakterologik sifatlar* — odoblilik, mehribonlik, takt, jonsaraklik, dilgirlik, muloqatga kirishuvchanlik, altruizm, g‘amho‘rlik, rahm-shafqat va boshqalar.
- *O‘z-o‘ziga munosabatga aloqador xarakterologik sifatlar* — kamtarlik, kamsuqumlilik, mag‘rurlik, o‘ziga bino qo‘yish, o‘z-o‘zini tanqid, ibo, sharmu-hayo, manmansirash va boshqalar.
- *Narsalar va hodisalarga munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xususiyatlar* — tartiblilik, oqillik, saronjom — sarishtalik, qu’li ochiqlik, zihnalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar.

Yuqorida sanab o‘tilgan sifatlar aslida shaxsning hayotdagi yo‘nalishlaridan kelib chiqadi. Chunki yo‘nalish - odamning borliqqa nisbatan tanlovchan munosabatining aks etishidir. Bunday yo‘nalish turli shakllarda namoyon bo‘ladi: diqqatlilik, qiziquvchanlik, ideallar, maslaklar va hissiyotlarda.

## 1.2. Xarakterni o‘rganish tarixi va bu boradagi psixologik nazariyalar

Xarakterni o‘rganish juda qadim zamonlardan kishilarning diqqatini jalb etgan. Shuning uchun xarakterni tushuntirishda turli **tipologiyalar**ni kuzatamiz. Kishi hulq–atvorini o‘ziga xos xarakter hususiyatlarini uning tug‘ilgan sanasiga ko‘ra tushuntirish (goroskoplarda) yozilgan bo‘lsa, *fiziognomika*da esa shaxs xarakterini

tushuntirishda uning tashqi ko‘rinish belgilari: ko‘z, burun, og‘iz, kulgu orqali izohlanadi. İnson xarakter hususiyatlarini tushuntirishda uning gavda tutishi, o‘tirish holatlari, oyoq va qo‘llarning holati orqali izohlash ham kuzatiladi. Kamida kishilarning kaftlaridagi chiziqlarga ko‘ra xarakter hususiyatlarini aniqlash orqali *xiromantiya* fani rivojlangan bo‘lsa, kishining yozuvi, husni xati orqali xarakter qirralarini ko‘rsatib berish *grafologiya* fani funktsiyasi hisoblanadi. Shaxs xarakterini tushuntirishda temperament bilan uzviy bog‘liqlik jihatlarini **E.Krechmer, U.Sheldon** tipologiyalarida kuzatamiz. Psixologiya tarixidan xarakterni insonning bosh suyagining shakliga, yuz to‘zilishiga, qaddi–qommatiga va hokazolarga bog‘liq deb qarash ko‘p bo‘lgan.

**Platon** va **Aristotel** kishi xarakterini uning basharasiga qarab aniqlashni tahlil qilgan edilar. «Kishi tashqi kiyofasida biror xayvonnikiga uhshash belgilarni topish zarur, keyin xarakter aniqlanadi»,- deyishgan. Arastu fikricha, bukaniki singari yug‘on burun - ishyokmaslikni bildiradi, cho‘chkanikiga uxshash teshiklari, katta–katta keng burun-ahmoqlikni, arslonniki kabi burun - mag‘ro‘rlikni, echkilar, qo‘ylar va quyonniki singari jo‘nining mayinligi - qo‘rqoqlikni, sherlar va yovvoyi cho‘chkalarniki singari jo‘nining dag‘alligi - botirlikni bildiradi.

Xarakterni aniqlashning bunga uhshash fiziognomik tizimini o‘rta asrda yashagan suriyalik yozuvchi **Abul Faraj Bar Ebrey**da ko‘ramiz. U shunday yozadi: «Yug‘on va kalta buyinlik kishi buyvol (yovvoyi mol) singari qahr g‘azabga keladigan mayilga ega. Uzun va ingichka buyin qo‘rqoqlik alomati. Bunday kishi bo‘g‘u singari qo‘rkadigan buladiki … qaysi birining buyni jo‘da kichik bo‘lsa, buri singari maqqor buladi» (Abul Faraj).

XVIII asrda yashagan **İogann Kaspar Lafater**ning fiziognomistik qarashlari mashhur bo‘lib ketdi. Uning fikricha «İnson boshi–qalbini ko‘rsatadigan oynadir. Bosh suyagi konfiguratsiyasini, imo-ishorani o‘rganish - xarakterni o‘rganishning asosiy yuli»,- deb xisoblaydi. Lekin, bu qarashlarning asossizligini uning o‘z qotilini bila olmagani, so‘hbatlashib utirgan munofiq uni otib o‘ldirishidir. Xarakterni o‘rganadigan soxa **frenologiya** deb nom olgan (nemis vrachi **Frents Gall** nomi bilan bog‘liq.) U bosh suyagi konfiguratsiyasi asosida insonning frenologik kartasini to‘zgan. Lekin bu ham o‘zini oqlamagan.

**Charlz Darvin** (1809-1882) o'zining «Odamda va hayvonlarda his-tuyg'o'larning ifodalanishi to'g'risida» (1872 y.) kitobida fiziognomist «…har bir individning o'z shaxsiy qiziqishlariga ergashib, faqat yuzlaridagi, asosan malum bir muskullarni qisqartirishi, bu muskullar ko'chlirok rivojlangan bo'lishi mumkinligi va shuning uchun bu chiziqlar va ularning odatdagi qiskarishidan paydo bo'ladigan yuz qiskarishi ancha chuqur va ko'zga ko'rinarli bo'lishi mumkinligini jiddiy ravishda bilish kerak»,-deb yozadi. Darvinning bu g'oyalari ko'pgina psixologlarning izlanishlari uchun asos buldi.

Xarakter kishining tashqi ko'rinishiga tasir qilar ekan, uning hatti-harakatlarida, hulq-atvorida, faoliyatida yorkin ifodasini topadi. Xarakter to'g'risida odamlarning hatti-harakatlari asosida hukm chiqarish kerak. Odatdagi ish, faoliyat va hatti-harakatlar tizimi – kishi xarakterining poydevoridir. Xarakterni kishining odatlari ham yaxshi namoyon kiladi.

Xarakter sotsial tabiatga ham ega, yani, kishining dunyoqarashiga, uning faoliyat mazmuni va shakliga, u yashayotgan va ishlayotgan jamoada, boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishiga bog'liq. Eng muximi kishi ekstremal vaziyatda o'zini yaqqol ko'rsata oladi. Kishining istalgan shu jumladan, ichki psixologik xolatlarga qarshilik qila olish qobiliyati uning o'zini o'zgarttiradigan qo'dratli ko'chi borligini, uning shaxs sifatida rivojlantirish negizini namoyon qiladi. Shaxs nimaga va qay darajada qodirligiga qarab unda birinchi o'rinda konkret xarakterologik emas, balki ijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlari yotadi va bunga u qay darajada qodir bo'lmasa, shaxs odatdagi vaziyatlarda boshqalardan ajralib to'radigan individual sifatlari bilan benishon qo'milib ketishi mumkin.

Buning ustiga odamlar aynan bir hil xolatlarni har doim ham bir hil aks ettirmaydilar: *«Kimki bajarishni istasa vosita izlaydi, kimki istamasa bahona izlaydi».* Artist o'zi uynagan kahramoni xarakteriga to'shib qolganini bilmay qolishi mumkin (masalan, italiyalik sobiq firibgar ijobiy kahramon rolini uynab avvalgi xarakterini tamomila o'zgarttirib yuboradi). Yoki sobiq yosh qoidabo'zar unga ishonch bildirilgach shu ishonchni oqlashga urinib o'zi eng odobli, intizomli kolonistga aylanishini mashhur pedagog **A.S.Makarenko** isbotlagan.

Xarakter — tarixiy kategoriya hamdir. Buning manosi shuki, har bir ijtimoiy-iqtisodiy davr o‘z kishilarini, o‘ avlodini tarbiyalaydi va bu tafovut odamlardagi xarakterologik xususiyatlarda o‘z aksini topadi. Masalan, o‘tgan asr o‘zbeklari, XX asrning 50 — yillaridagi o‘zbeklar va mustaqillik yillarida yashayotgan o‘zbeklar psixologiyasida farq avvalo ularning xarakterologik sifatlarida aks etadi. Aminmizki, XXI asrning yosh avlodlari yanada zukkoroq, irodaliroq, marifatli va manaviyatliroq bo‘ladi. Mamlakatimizda hozirgi kunda amalga oshirilayotgan say-xarakatlar yangi asr avlodining ruhan va jismonan sog‘lom bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Xarakter xususiyatlarining nimalarda namoyon bo‘lishi, ularning belgilari masalasi ham amaliy jihatdan muhimdir.

Avvalo xarakter insonning *xatti - harakatlari va amallarida* namoyon bo‘ladi — odamning ongli va maqsadga qaratilgan xarakatlari uning **kim** ekanligidan darak beradi.

*Nutqining xususiyatlari* (baland tovush bilan yoki sekin gapirishi, tez yoki bosiqligi, emotsional boy yoki jonsiz) ham xarakterning yo‘nalishini belgilaydi.

*Tashqi qiyofa* — yuzining ochiq yoki tund ekanligi, ko‘zlarining samimiy yoki johilligi, qadam bosishlari — tez yoki bosiq, mayda qadam yoki salobatli, turishi-viqorli yoki kamtarona, bularning xammasi xarakterni tashqaridan kuzatib o‘rganish belgilaridir.

Bundan tashqari ilm olamida juda ko‘plab urinishlar bo‘lgan. Ularda odamning turli tabiiy, tug‘ma xususiyatlariga xarakterni bog‘lashga urinishlar bo‘lgan. Masalan, *fiziognomika* odam yuz qirralari va ularning bir-biriga nisbati orqali, *xiromantiya* — qo‘l barmoqlari va kaftdagi chiziqlar orqali, ko‘z rangi va qarashlar, soch va uning xususiyatlari orqali o‘rganishga xarakat qilingan. Juda katta shov — shuvga ega bo‘lgan **Chezare Lombrozo, E. Krechmer, U. Sheldon**larning *konstitutsion nazariyalari* shaxs xarakterini uning tashqi ko‘rinishi, tana tuzilishi bilan bog‘lab tushuntirishga uringan. Bu nazariyalar juda qattiq tanqidga ham uchragan, lekin keltirilgan material, korrelyatsion tahlillar malum jihatdan individual xususiyatlardagi tug‘ma, mavjud sifatlar bilan xarakterologik sifatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik borligini isbot qilolgani uchun ham bu nazariyalar shu vaqtgacha o‘rganiladi.

Lekin xarakter va uning rivojlanishi, namoyon bo‘lishi uchun umumiy qonuniyat shuki, u tashqi muhit tasirida, turli xil munosabatlar tizimida shakllanadi va sharoitlar o‘zgarishi bilan o‘zgaradi. Har bir kasb-hunar o‘zining talablari majmui — professiogrammasiga egaki, u shu kasb bilan shug‘ullanayotganlardan o‘ziga xos psixologik qirralar va xossalar bo‘lishini taqozo etadi (psixometriya). Shuning uchun ham vrachning, o‘qituvchining, muxandisning, harbiylarning, artistlarning va boshqalarning professional sifatlari haqida alohida gapiriladi. Ana shu kasb sohiblari, ularning ish mobaynida ko‘rsatadigan individualligi ichida esa xarakterologik o‘ziga xoslik katta ahamiyatga ega va buni nafaqat shaxsning o‘zi, balki uni o‘rab turgan boshqalar ham yaxshi bilishlari kerak.

Xarakterni ko‘p vaqt mobaynida iroda bilan sinonim sifatida tushuntirib kelingan. Shuning uchun ham «irodali odam»ni «xarakterli odam» deb ham sanalib kelingan. Shaxs xarakteri iroda bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda qiyinchilik, kurashlarda kishi hususiyatlarini namoyon bo‘lishi nazarda tutiladi. Shuningdek, iroda shaxs oldiga qo‘ygan maqsadlariga etishishida qanchalik xatti–harakatlar amalga oshirishida, qatiyatlilik, masuliyatli bo‘lishida ham kuzatiladi. Gohida irodasi sust ifodalangan «xaraktersiz» deb ham tariflanadi.

Shaxs xarakterini kuzatilishida uning hissiyoti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli o‘z davrida **K.D.Ushinskiy**: «hech narsa, na so‘z, na fikr, na xatti–harakatlar, hissiyot kabi kishining tashqi olamga munosabatini ko‘rsatib berolmaydi», - deb yozgan. Shaxs xarakterini ifodalashda uning hissiyoti yorqin mezon bo‘la oladi. Xarakter ijtimoiy munosabatlar sistemasida shakllanib rivojlanar ekan, albatta shaxs faoliyati, faoliyat motivlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun shaxsning o‘yin, talim va mehnat faoliyatlarida inson xarakteridagi ko‘p hususiyatlar namoyon bo‘lganligini kuzatamiz.

Xarakter xususiyatlari o‘zgaruvchan bo‘lishiga qaramay, har bir alohida shaxs va yaxlit millat o‘ziga xosligini ifodalovchi shunday barqaror sifatlar bo‘ladiki, ular yillar, xattoki, asrlarga ham dosh beradi. Masalan, bu milliy xarakterga taalluqlidir. O‘zbeklar xarakterida asrlar davomida saqlanib kelayotgan samimiylik, mehmonnavozlik, ibo, sharm-hayo, takalluf, kamtarlik,

mehnatsevarlik kabi qator sifatlar avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Bu sifatlar xalq manaviyatining qadriyatlariga aylanib qolgan va o‘zbekning o‘zligini namoyon etuvchi barqaror xususiyatlardir.

### 1.3. Xarakter to‘zulishi va muhim sifatlari

İnson shaxsining xarakteri hamisha ko‘pqirralidir. Unda alohida xususiyatlar yoki tomonlar ajratilib ko‘rsatilishi mumkin, lekin ular bir-birlaridan ajratilgan, alohida xolda bo‘lmaydi, balki malum darajada xarakterning barqaror to‘zilishini tashkil etgan xolda o‘zaro bog‘lik bo‘ladi.

Xarakterning to‘zulishi uning ayrim xususiyatlari urtasidagi qonuniy bog‘liklikda namoyon bo‘ladi. Agar kishi qo‘rqoq bo‘lsa, u tashabbuskorlik, katiylik va mustaqillik, fidokorlik va oliyximmatlilik fazilatlariga ega bo‘lmaydi, deb aytish uchun asoslar bor. Shu bilan birga xarakteri buyicha qo‘rqok kishidan itoatkorlik va ho‘shomadguylikni, ko‘chli kishiga nisbatan konformlilikni, qizg‘onchaqlikni, sotqinlikni, ishonchsizlik va ehtiyotkorlikni ko‘tish mumkin.

Xarakterning xususiyatlari orasida ayrimlari asosiy, etakchi bo‘lib, uning namoyon bo‘lishining butun kompleksini rivojlantirishning umumiy yunalishini belgilab beradi. Ular bilan bir qatorda ikkinchi darajali xususiyatlar ham borki, ayrim xollarda ular asosiy deb belgilanishi, boshqalarida esa ular bilan uyg‘o‘nlashmasligi ham mumkin. Xarakter subektning birgalikdagi faoliyatga qay tarzda faol jalb qilinishiga qarab xatti-xarakatlarda va ishlarda namoyon bular ekan, ham faoliyat mazmuniga, ham qiyinchilikning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bartaraf etilishiga, ham asosiy xayotiy maqsadlarga erishishda uzoq va yaqin istiqbollarga bog‘lik bo‘lib qoladi.

Shunday qilib, xarakterning tarkib topishida kishining tevarak-atrofidagi muhitga va o‘z-o‘ziga, boshqa kishiga qanday munosabatda bo‘lishi muhim xisoblanadi. Shu bilan birga, bu munosabatlar xarakterning eng muhim xususiyatlarini tasniflash uchun asos bo‘ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib xarakterning **to‘rtta sistemasi**ni farqlash mumkin:

- Jamoaga va ayrim odamlarga bo‘lgan munosabatlarni ifodalovchi xarakter xususiyatlari: yahshilik, mehribonlik, talabchanlik, takkabo‘rlik va boshqalar;

- Mehnatga bo‘lgan munosabatni ifodalovchi xarakter xislatlari: mehnatsevarlik, vijdonlilik, ishga masuliyat bilan qarash, boshlagan ishni ohiriga etkazish, yalqovlik, masuliyatsizlik kabilar;
- Narsalarga bo‘lgan munosabatlarni ifodalovchi xarakter xislatlari: ozodalik yoki ifloslik, narsalarni ayab ishlatish yoki ayamaslik, ularga nisbatan extiyotkorlik yoki aksincha kabilar;
- Odamning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini ifodalovchi xarakter xislatlari: izzat-nafslilik, o‘z shanini ehtiyot qilish, kamtarlik, o‘ziga ortiqcha baho bermaslik yoki sho‘hratparastlik, mag‘rurlik kabilar.

Shunday qilib, xarakterning tarkib topishida kishining tevarak-atrofdagi muhitga va o‘z-o‘ziga - boshqa kishiga qanday munosabatda bo‘lishi muhim moment hisoblanadi. Shu bilan birga, bu munosabatlar xarakterning eng muhim xususiyatlarini tasniflash uchun asos bo‘ladi.

*Birinchidan*, kishining xarakteri, u **b o sh q a o d a m l a r g a**: qarindosh-urug‘lariga va yaqinlariga, ishdagi va o‘qishdagi o‘rtoqlariga, boshqa tanishlariga qanday munosabat bildirayotganligida namoyon bo‘ladi. Barqaror va beqaror bog‘langanlik, printsipiallik va printsipsizlik, dilkashlik va maxdudlik, rostgo‘ylik va yolg‘onchilik, odoblilik va ko‘pollik kishining boshqa odamlarga munosabatini belgilaydi.

*İkkinchidan*, kishining **o‘ z i g a** bo‘lgan munosabati: obro‘talablik va o‘z qadrini xis qilish, yoki o‘z kuchini kamaytirib ko‘rsatish va ishonmaslik xarakter uchun xosdir. Bir xil odamlarda izzattalablik va egotsentrizm, boshqalarida esa o‘z shaxsiy manfaatlarini jamoat manfaatlariga bo‘ysundirish, umumiy ish uchun kurashda fidokorlik birinchi o‘ringa chiqadi.

*Uchinchidan,* xarakter kishining **i sh g a** munosabatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, kishi xarakterining eng qimmatbaxo belgilari qatoriga vijdonlilik va ishchanlikni, jiddiylikni, tashabbuskorlikni, topshirilgan ish uchun masuliyatni va uning natijalari uchun tashvishlanishni kiritish mumkin. Lekin, ayirim odamlarning xarakterida amalparastlik, ishga rasman munosabatda bo‘lish odatlari xali ham saqlanib qolgandir.

*To'rtinchidan,* xarakter kishining **n a r s a l a r g a** munosabatida namoyon bo'ladi: faqat ijtimoiy mulkka nisbatan emas, balki o'z buyumlariga, kiyimlariga, o'quv qurollariga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yoki ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish va hokazo.

Kishining faoliyati, uning hulq-atvori eng avvalo uning o'z oldiga ko'ygan maqsadlari bilan belgilanadi va uning shaxsining yo'nalganligi - qiziqishlari, ideallari va etiqodining majmui doimo uning hulq - atvori va faoliyatinng asosiy determinanti bo'lib qoladi. Biroq shaxs yunalishida ko'plab umumiylik bo'lgan maqsadlari bir-biriga to'g'ri keladigan ikki kishida ana shu maqsadlarga erishish uchun ular foydalanayotgan usullarda jiddiy farqlar bo'lishi mumkin. Ana shu farqlar ortida shaxs xarakteridagi xususiyatlar turadi. Kishining xarakterida tipik xolatlarda go'yo uning hulq-atvori uchun tipik dasturning poydevori qo'yilgan bo'ladi.

Xarakteriga ko'ra qatiy kishi motivlar ko'rashiga uzoq berilmay, niyatlardan amaliy ishga kirishadi. İndivid xarakterining xususiyati sifatida odoblilik fikr-muloxaza bildirishda ehtiyotkorlikning namoyon bo'lishiga yordam beradi. Bu esa muomalaga kirishayotgan odamlar uchun muhim bo'lgan qator vaziyatlar va muammolarni hisobga olishni nazarda tutadi.

Xarakterning kishilik tajribasida qayd etilgan va tilda o'z ifodasini topgan xususiyatlari soni behad ko'p va har xolda mingtadan ortiqroqni tashkil etadi. Shu sababli xarakterning o'zgarib turadigan xususiyatlarini sanab va tavsiflab o'tirish maqsadga muvofiq emas, buning ustiga psixologiyada aniq bir tasniflash sxemasi yo'q. Xarakter xususiyatlarining variantliligi, ularning faqat sifat jixatidan rang - barangligi va o'ziga xosligida emas, balki mig'dor jixatidan ifodalanganida namoyon bo'ladi.

### 1.4. Xarakter aktsentuatsiyasi

Birmuncha sho'bxali, malum darajada sahovatli, birmuncha vijdonli va samimiy kishilar bor. Xarakterning u yoki bu xususiyati mig'doriy ifodaliligi ohirgi marraga etib va normaning eng ohirgi chegarasiga borib qolganda *xarakterning atsentuatsiyasi* deb atalmish vaziyat tug'iladi. *Xarakter xususiyatlarining aktsentuatsiyasi.* Xarakterning kishida ko'rinadigan va tilimizda o'z

ifodasini topgan xususiyatlari bexad koʻp bulib, mingdan ortiqni tashkil etadi. Shu sababli xarakterning oʻzgarib turadigan xususiyatlarini sanab va tasniflab berish juda qiyin. Bundan tashqari hozirgacha psixologiyada aniq bir tasniflash sxemasi ishlab chiqilgan emas. Xarakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marraga etib va norma chegarasiga borib qolganda xarakterning **aktsentuatsiya** (ortiqcha urgʻu berilishi) deb ataladigan vaziyat paydo buladi. Xarakterning ortiqcha urgʻu berilishi – ayrim xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning ohirgi chegarasidir.

Xarakterga ortiqcha urgʻu berilishi - ayrim xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi variantlaridir. Bunda individda boshqalariga nisbatan barqarorlik boʻlgani xolda bir xil stressogen (qattiq hayojonlanuvchi) omillarga zaiflik ortishi kuzatiladi. Kishi xarakterdagi boʻsh boʻgʻin koʻpincha ana shu boʻgʻinning faol ishlashini talab qiladigan ogʻir vaziyatlarda namoyon boʻladi. Mazkur individ xarakterning zaif joylariga tegmaydigan barcha boshqa qiyinchiliklarni u ortiqcha zoʻriqmay va tevarak - atrofdagilarga, va na oʻziga hech qanday koʻngilsizlik keltirmay boshidan kechirishi mumkin. Xarakterning aktsentuatsiyasi oʻta noqulay vaziyatlarda patologik buzilishlarga va shaxs xulq-atvorini oʻzgarishlariga, psixopatiyaga olib borishi mumkin, lekin uni patologiyaga oid deb hisoblash nooʻrindir.

Senzitiv tip uchun qoʻrqoqlik, odamovilik, tortinchoqlik xosdir. Senzitiv oʻsmirlar katta va buning ustiga yangi ulfatlarga qoʻshilishdan qochishadi, tenqurlarining shoʻxliklarida va qaltis ishlarida qatnashmaydilar, yosh bolalar bilan oʻynashni afzal koʻradilar. Ular nazorat ishidan qoʻrqishadi, ayrim vaqtlarda xato qilib guruhdoshlarining kulgisiga sabab boʻlish yoki xaddan ziyod yaxshi javob bilan xavasini keltirishdan xavfsirab, sinf oldida javob berishdan qochishadi.

Senzitiv oʻsmirlarning oʻzlarining norasoliklarini xis qilishi giperkompensatsiya reaktsiyasini ayniqsa ifodali qiladi. Ular oʻzligini tasdiqlashni oʻz xulq-atvorining boʻsh joyida, ularning qobiliyatlari yaxshiroq namoyon boʻladigan soxalarda izlamaydilar, balki oʻzlarining juda ham norasoliklarini ayniqsa sezadigan joylarda izlaydilar. Qizlar oʻzlarining quvnoqliklarini koʻrsatishga xarakat qiladilar. Juratsiz va uyatchan bolalar betakalluflik yoki xatto ataylab takabburlik

niqobiga kirib olishadi, o‘z kuch quvvati va irodasini ko‘rsatishga intilishadi. Qachonki vaziyat ulardan dadil qatiylik ko‘rsatishni talab qilarkan, ular shu zaxotiyok ojizlik qiladilar. Agar ular bilan vakolat beruvchi munosabat o‘rnatish iloji bo‘lsa va hamsuhbatning xayrixoxligi va maqsadini xis qilsa, u xolda niqob bilan ulash ham «suvtekin» hayot bo‘lib chiqadi, gox gina qudratga to‘lib toshish va vijdon azobi, nozik tuyg‘u va o‘ziga nisbatan xaddan ziyod yuksak talablar qo‘yadi. Kutilmaganda ishtirok etish va hamdardlik bildirish manmanlikning o‘rniga o‘tishi va sharillab oqayotgan kuz yoshini shunchaki quriq narsa qilib ko‘rsatish mumkin edi.

## 1.5. Xarakterning shakllanishi

*Hulq-atvor va xarakterning shakllanishi.* Huddi temperament kabi xarakter ham kishining fiziologik xususiyatlariga, xarakterning ko‘rinishlariga o‘z tasirini ko‘rsatadi, ularning paydo bo‘lishi va kechishining dinamik xususiyatlarini belgilab beradi. Temperamentning xususiyatlari xarakterning muayyan tomonlari rivojlanishiga karshilik ko‘rsatishi yoki yordam berishi mumkin. Xolerik yoki sangvinik tipdagi odamga qaraganda flegmatik tipdagi odam uzida tashabbuskorlik va katiylikni tarkib toptirishi qiyinrokdir. Juratsizlik va vaximalilikni bartaraf etish melanxolik uchun jiddiy muammo bo‘lib xisoblanadi. Xarakterning jamoada shakllantirilishi xolerik tipdagi kishilarda o‘zini tuta bilishni va o‘ziga tanqidiy ko‘z bilan qarashni, sangviniklarda sabotlilikni, flegmatiklarda faollikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Xarakter xususiyatlarining paydo bo‘lishi, uning tabiati, o‘zgarishi mumkinligi yoki mumkin emasligi psixologlarning uzoq davom etib kelayotgan munozaralari mavzui bo‘lib xisoblanadi.

**Xarakter** – kup jixatdan **o‘z-o‘zini tarbiyalash natijasi**dir. Xarakterda kishining odatlari jamlanadi. Xarakter odamlar faoliyatida namoyon buladi, shu bilan birga, u shu faoliyatda shakllanadi ham. Agar yigit yoki qiz o‘zini - o‘zi tanqid qilishni xarakterining xususiyati sifatida tarbiyalashga urinayotgan bo‘lsa, ular o‘zlariga tanqidiy nuqtai nazardan yondoshishlari kerak. Mexnat va o‘qish to‘g‘risida gapirmagan taqdirda ham kundalik turmush, oiladagi hayot sharoitlari

insoniy xarakterlar maktabidir. Pedagoglar va ota-onalar oldida muntazam ravishda masuliyatli vazifa: bolalar xarakterida sezila boshlagan o‘zgarishlarni o‘z vaqtida sezish va ularni inobatga olgan xolda hulq-atvor va tarbiya soxasida o‘z yulini amalga oshirish vazifasi turadi.

Shunday qilib, kishiga xarakter tabiatan berilmagan. O‘zgarttirib va qaytadan shakllantirib bulmaydigan xarakter bulmaydi. «Mening xarakterim shunaka va men o‘zimni hech narsa qila olmayman»,- deb baxona kilish psixologik jixatdan mutlaqo asossizdir. Har qanday kishi ham o‘z xarakterini barcha ko‘rinishlari uchun javobgardir, har bir kishi o‘zini-o‘zi tarbiyalash imkoniga egadir.

Kishining xarakteri to‘g‘ma, doimiy va o‘zgarmaydigan narsa emas. Bola onadan mexnatsevar yoki dangasa, rostguy yoki munofik, botir yoki qo‘rqok, intizomli yoki intizomsiz bo‘lib tug‘ilmaydi. Har bir odamning xarakteri temperamenti asosida, ijtimoiy muhit tasiri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishi o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan taraqqiy qilib, o‘zgarib boradi. Xarakterning taraqqiyoti kishining irodasi, aql-idroki va xissiyotlarining taraqqiy qilib borishi bilan mustaxkam bog‘liqdir. Shu sababli kishining irodasi, akl-idroki va xis-tuygularining taraqqiy qilib borishi va ularning tarbiyalanishi hakida aytilgan fikrlarning xammasi kishi xarakterining rivojlanishiga ham tegishlidir.

*Xarakterning o‘sishida ijtimoiy muhitning roli.* Kishining butun hayoti davomida uning xarakteri tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo, shu kishi birga yashab va ishlab kelgan jamoa katta tasir kursatadi.

*Xarakterning o‘sishida tarbiyaning roli.* Xarakterning o‘sishida tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash asosiy va etakchi rol uynaydi. O‘sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri avvalo oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta, masuliyatli vazifa ota-onalar, ukituvchilar, bolalar bog‘chalari tarbiyachilari zimmasiga tushadi.

*Xarakterning o‘sishida jamoaning roli.* Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyaviy roli nixoyat kattadir. İnson yakka, bir-biridan ajralgan xolda tanxo yashay olmaydi. U muayyan bir jamoada, chunonchi, oilada, maktabda, tsexda, bog‘chada xayot kechiradi. Jamoa – shaxs bilan jamiyat urtasidagi

bog‘lovchi bo‘g‘indir. Odamning faoliyati – uyin, o‘qish va mehnati huddi mana shu jamoada bo‘ladi. Jamoa shaxsning eng yakin konkret muhiti bulib qolmay, balki shaxsni tarbiyalaydi ham. Kishi xarakterining kerakli ijobiy xislatlari faqat jamoada tarbiyalanmog‘i mumkin.

*O‘z xarakterini o‘zi tarbiyalash.* Kishi xarakteri o‘z – o‘zini tarbiyalashning ham mahsulidir. Shu sababli har bir kishi malum yoshdan boshlab o‘z xarakteri va uning ayrim sifatlari uchun javobgar hamdir. Shu bilan bir vaqtda kishi o‘z xarakterida salbiy tomonlarni o‘zi tan olishi, kamchiliklarni o‘zi tarbiyalashi lozim. O‘z xarakterini tarbiyalashda kishi avvalo yaxshi fazilatlarni, yaxshi idealini o‘zida tarbiyalashi kerak.

*Xarakterning o‘sishida namunaning roli.* Yuksak ahloqiy va irodaviy xislatlari bilan hammaga manzur bulgan kishilar namunasi xarakter tarbiyalashning muhim vositasi bulib xisoblanadi. Jamiyatimizda bolalarga namuna kilib ko‘rsatish mumkin bulgan ajoyib insonlar jo‘da kup. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin uzining ishbilarmonligi, tashabbuskorligi, halq manfaati yulidagi fidokorligi bilan yoshlarga ibrat buladigan kishilar tobora kupayib bormoqda. Bunday kishilarni biz o‘lkan qo‘rilishlarda, Toshkent-Osh halqaro yulining qo‘rilishida, chet ellar bilan hamqorlikda qo‘shma korxonalar ochganlar orasida, fan, texnika, sanat, adabiyot namoyandalari orasida ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Xarakterning shakillanishi shaxsning rivojlanish darajasiga ko‘ra hilma hil guruhlarga mansub turli hildagi sharoitlar bilan qo‘shilgan xolda yuz beradi. Kishining xarakterini bila turib, uning u yoki bu xolatlarda o‘zining qanday tutishini va demak, kishi o‘z xulq-atvorini qanday izga solishini oldindan ko‘ra bilish mumkin. İnson shaxsning xarakteri ko‘p qirralidir. Unda alohida hususiyatlar yoki tomonlar ajratib ko‘rsatilishi mumkin, lekin ular bir-biridan ajratilgan, alohida xolda mavjud bo‘lmaydi, balki malum darajada xarakterning barqaror tuzilishini tashkil etgan xolda o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Shaxs xarakterining shakllanishida uning psixik jarayonlari, psixik xolatlari, shaxs hususiyatlari, xarakter hususiyatlari, xarakter qirralari uzviy bog‘likdir.

Xarakterning *strukturaliligi* uning ayirim hususiyatlari oʻrtasidagi qonuniy bogʻliqlikda namoyon boʻladi. Agar kishi qoʻrqoq boʻlsa, u tashabbuskorlik, katiylik va mustaqillik, fidokorlik va oliy himmatlilik fazilatlariga ega boʻlmaydi. Shu bilan birga xarakteri boʻyicha qoʻrqoq kishidan itoatkorlik va hushomadgoʻylikni, kuchli kishiga nisbatan konformlilikni, qizgʻanchaqlikni, sotqinlikka tayyorlikni, ishonchsizlik va etiyotkorlikni kutish mumkin. Turmushda ancha barqaror va ancha ziddiyatli xarakterlar uchraydi. Barqaror xarakterlarning mavjudligi xarakterlarning ulkan rang-barangligi ichida ularning umumiy xususiyatlar boʻlgan malum tiplarini ajratish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Xarakterning xususiyatlari etikod, hayotga boʻlgan qarashlar va shaxs yoʻnalishining boshqa xususiyatlari aynan bir xil deb qaralishi mumkin emas. Bir xushmuomala va xushchaqchaq kishi yuksak manaviy va insofli boʻlishi mumkin, boshqasi esa - u ham xushmuomilali va xushchaqchaq - faqat shaxsiy farovonlik va oʻz oilasini huzur xalovati toʻgʻrisida hamxoʻrlik qiluvchi mayda korchalon, shu jumladan oʻz maqsadlariga erishish uchun yaramas qiliqlardan ham jirkanmaydigan boʻlib chiqadi. Xarakter subektning birgalikdagi faoliyatga qay tarzda faol jalb qilinishiga qarab xatti-xarakatlarda va ishlarda namoyon boʻlarkan, ham faoliyat mazmuniga, ham qiyinchiliklarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bartaraf etilishiga, ham asosiy hayotiy maqsadlarga erishishda uzoq va yaqin istiqbollarga bogʻliq boʻlib qoladi.

### 1.6. Milliy xarakter haqida

Milliy xarakter obekt sifatida qiyin, ammo lekin oʻrganish mumkin boʻlgan ijtimoiy tarixiy xodisadir. U milliy psixologik kiyofaning tarkibiy qismi xisoblanadi. Milliy xarakter milliy hayotdagi tarixiy kategoriya boʻlib, uni urganish, tushuntirib berish shu millat hayotini, tarixini, tili va madaniyatini yaxshi bilish zarur.

XIX asrda etnopsixologik xususiyatlarni oʻrgangan koʻpgina mualliflar oʻz asarlarida **milliy xarakter**ni real vokelik sifatida mavjudligini etirof etgan.

Faylasuf **E.Fridriz** Angliya tarixini o‘rganar ekan, frantsuz va nemislarda bo‘lmagan uziga xos mustaqillik, o‘ziga ishonch xususiyatlari rivojlanganligini ko‘rsatib beradi. "İngliz milliy xarakteri nemislarnikidan ham, shuningdek, frantsuzlarnikidan keskin farqlanadi"- deb yozadi u. Malumki, xarakterni mavjudligini inkor etuvchi ayrim mualliflar rus, ukrain, armanlar va nemis, frantsuzlar bir-biridan farqlovchi xususiyatlarini ko‘rsatib bering, deyishadi. Diqqat qilib o‘rganish va tekshirish jarayonida xamma halqlarning milliy xarakterida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar borligini bilib olish mumkin. Milliy xarakterdagi bu farqlarni xatto kundalik hayotda ham ko‘plab uchratamiz. Millat xarakterini realligini ximoya qiluvchi mualliflar shunday bir epizodni tasavvur qilishni tavsiya etishadi. Agar vagon kupesiga ikki notanish ingliz chikib qolsa, ular safarlarining oxirigacha bir-biri bilan yaqindan so‘hbat kurmay, xatto bir og‘iz gapirmasdan kelishlari mumkin deyishardi… O‘zbeklar-chi?.. Aksincha bir-biri bilan yaqindan tanishib, butun hayotini bilib o‘lguradi. Halqlarning turlicha xarakter xislatlariga ega bo‘lishligi ularning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, tarixiy taraqqiyoti va tabiiy yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Bunda ijtimoiy munosabatlar milliy xarakterni shakllanishida etakchi rol uynaydi. Xar bir tarixiy davr shu davrdagi ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari asosida **milliy mafkura manfaatlari**ga mos bo‘lib tushadigan o‘z milliy xarakter idealini yaratadi. Shu davrdagi xarakter tipi kishilarning yashash tarzini aks ettiradi.

Xalqning butun tarixi davomida orttirgan har bir xarakter xislatlarning vujudga kelishi kishilar ruhiyatiga atrofdagi vokeliklarning uzoq vaqt davomida tasir etib turishi bilan bog‘liqdir. Milliy xarakterga qanday ruhiy xislat va sifatlarni kiritish mumkin?

Shuni taqidlash kerakki, **"Milliy xarakter"** tushunchasi haqida xali ham umumiy bo‘lgan bir hil qarash mavjud bo‘lmasa ham, lekin unga kiruvchi xislatlar to‘g‘risida umumiy bo‘lgan fikrlar mavjud. Ko‘p tadqiqotchilar milliy xarakterga - mexnatga munosabat (mexnatsevarlik), vatanparvarlik, erksevarlik, dovyuraklik, jangovarlik kabi xislatlarni kiritishadi. *Bizning fikrimizcha*, yuqoridagi xislat va sifatlar bilan bir qatorda milliy xarakter tarkibiga yana

millatning aqil to‘zilishi, boshqa halqlarga bo‘lgan munosabati va shu millat vakillarining o‘zaro munosablarini belgilovchi xususiyatlar ham kiradi.

Milliy xarakter va etnik psixologiyani o‘rganishlarning mualliflari, milliy xarakterdagi keltirilgan xislatlarni qaysi biri birorta halqda yoki millatta mavjud emas? - deb savol quyishadi. Milliy xarakterni o‘rganishda tadqiqotchilar uchraydigon qiyinchilik ham ana shunda. Darxakikat, xarakterning qaysi bir xususiyatini ochib kurmaylik, albatta, u barcha halqlar va millatlarda ham mavjud ekanligini kuramiz. Masalan, erksevarlik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi xislatlar hamma halqlarga xos xususiyat bo‘lgan xolda, bu xislatlar o‘zining namoyon bulishi, to‘zilishi jixatidan barcha halqlarda bir xil kechmaydi. Zero, xarakter xislatlarini keltirib chiqaruvchi yashash tarzi, tarixiy taraqqiyot va faoliyat sharoitlari aynan bir xil bo‘lganligi sababli, yuqoridagi xarakter xislatlarini namoyon bo‘lishi ham ularda aynan bir xil bo‘la olmaydi. Kavkazdagi tog‘li halqlarning hayoti va yashash tarzini urgangan tadqiqotchilarning barchasi bir ovozdan ularda jangovorlik, mag‘rurlik kabi xarakter xislatlari kuchli ekanligini etirof etishadi. Ularning bu xarakteri, - deb yozadi R.Ch.Chomaev, - tog‘li halqlarning tashvishli va xavf-xatarga to‘la hayotlarning iniqosi bo‘lib, unga moslashishga zarurati natijasidir. Tashki tasirlarning butun kompleksi tog‘ sharoitining og‘irligidan tortib, jangovorlik shon-shuxratigacha, beshikdagi alladan tortib epik halq dostonlarigacha o‘z erki va ozodligini saqlab qolish uchun mardlik, matonatli, kaxramonlik va jasurlikni tarbiyalashga qaratilgan edi.

Mehnatsevarlikni hamma halqlarga xos fazilat ekanligiga shak keltirmaymiz. Lekin, shuning bilan birgalikda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qo‘rilishi, geografik iqlim sharoiti, halq tomonidan mehnatsevarlik hamma halqlarda bir xilda namoyon bo‘lavermaydi. Malumki, Gollandiya mujazgina kichik maydonga ega. Maydoni Moskva viloyati territoriyasidan kichik. Lekin shu mamlakat butun Rossiyani boqadigan qishloq hujalik maxsulotini ishlab chiqarar ekan. Vaxolanki, Gollandiya halqi tabiiy-geografik sharoitiga ko‘ra, dengiz atrofidagi botqoq va toshloq erlarni o‘zlashtirib, unumdor erga almashtirish uchun og‘ir sharoitlarda ish olib boradi. Natijada ularda tirishqoklik va sabotlik bilan

mehnat qiladigan kishilarga nisbatan mehr-muxabbat bilan qarash shakllangan. Oilada o‘z farzandini shu ruhda tarbiyalashda xarakat qilar ekan. Bola sal-pal gapni tushunadigan bo‘lgach, ona uning kaftini ochib, u erda egri-bugri chiziqlarni ko‘rsatib: M - men  (odam), W – work (mexnat), yaniy,  «odam mexnat bilan to‘g‘iladi»,-  deb to‘shuntirar ekan.

Har bir halqning mehnatsevarligi turli ko‘rinishda kechadi. Masalan, o‘zbeklar ham, qozoqlar ham ikkilasi mehnatkash halq. Lekin ularning shu mehnatsevarligi faoliyatning turli soxalarida turlicha namoyon buladi. O‘zbeklarda u dehkonchilik, bog‘dorchilik bilan shug‘ullanish jarayonida namoyon bulsa, qozoqlarda chorvachilik bilan bog‘lik bo‘lgan mehnatda ko‘rinadi. Bir necha yillar mobaynida o‘zbek halqi dehkonchilik bilan mashg‘ul bo‘lib kelgan. Erga nisbatan ehtiyokor, tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lish xususiyatlari vujudga kelgan. Bizning ajdodlarimiz bir necha asrlar og‘ir sharoitlarda qiyinchilik bilan paxta etishtirib kelishgan. Asosiy mehnat qo‘l kuchi bilan usha davrlarda, bu nozik va yilning 8-9 oyi mobaynida doimiy mashaqqatli mehnat qilishni talab qiladigan o‘simlik, dehkonlardan va uning oila azolaridan ozmuncha ter to‘kishni talab qilmagan deysizmi?

Bundan tashqari xali tabiatning qo‘drati  ko‘chlari  oldida ojiz bo‘lgan yakka xujalik bilan ish olib boruvchi dexkon, tabiatning turli-tuman injiqliklariga qarshi ko‘rashishga majbur bo‘lgan. Paxtakor va bog‘bon dexkonni ko‘pincha baxorgi so‘v toshqinlari, yoki so‘vsizlik va qo‘rg‘oqchilik azoblari qiynagan. Bobo dexkon og‘ir, mashaqqatli mehnat qilib, peshona terisi bilan o‘z erini sug‘orib, xosil olishga, bog‘-rog‘lar yaratishga urgangan. So‘v payg‘ambar, er avliyo bo‘lgan usha davrlarda dehkon saratonning jazirama issig‘i-yu, ko‘zning sovuq izgirinlarini pisand qilmay, har bir qarich erni zo‘r mehr quyib ishlagan. Har bir g‘o‘za tupini ezozlab parvarish qilgan, har bir daraxtni ko‘z korachig‘iday saqlagan. Mana shularning hammasi avloddan-avlodga o‘tib, ulardan mashaqqatli mehnat qilish odatiy aylanib, zahmatkashlik, og‘ir sharoitlarda ham ruhi to‘shmasdan ishlay olishlik, dov-daraxtlarni sevishlik, ob-hayot manbai - so‘vni ezozlash kabi xususiyatlar o‘zbek halqiga xos xarakter xislati bo‘lib qolgan.

Qozoqlarning mexnatsevarligi esa chorvachilikda qilinadigan mehnatda, chorva mollarini parvarish qilishda namoyon buladi. Ular boqish uchun qulay va noqulay bulgan yaylovlarni topishda, chorva eydigan ut-ulanlarning xususiyatlarini farqlashda moxir boʻlishadi. Bu misollardan koʻrinib turibdiki, har bir millatning mehnatsevarligi, ular bevosita shugʻullanadigan mehnat turlarida tula namoyon buladi. Shuning uchun qozoq halqini dexkonchilik bilan bevosita shugʻullanmaganligi uchun dangasa, deya olmaymiz. Aksincha, oʻzbeklarning chorvachilikdagi nisbatan "oʻquvsizlik" uchun ularni ham mehnatsevar emas, deb boʻlmaydi. Milliy xarakterni mutloqlashtirib yuborish, albatta, notugʻri. Boshqa halqlarda va millatlarda uchramaydigan, faqat bir halqgagina xos boʻlgan sof milliy xarakter umuman tabiatda uchramaydi.

Har bir halk butun xususiyatlari bilan olingandagina va betakror boʻlib koʻrinishi mumkin …, uning har bir etnik xususiyati alohida olib koʻrilsa, mutloq noyob xususiyat boʻla olmaydi. Milliy xarakter muammosini oʻrganishdagi murakkablik va chalkashliklar, deb koʻrsatadi **İ.S.Kon**, koʻpincha dialektikadagi umumiylik va xususiylik, mushtaraklik va alohidalikni tushunmaslik natijasida vujudga keladi. Uning tugʻri takidlashicha, milliy xarakterning u yoki bu xususiyatini koʻrsatganda, albatta, u nisbatan olib oʻrganilishi kerak. Masalan, oʻzbek halqi xarakterida bir qarich eriga yopishib olishlik "kindik qoni toʻkilgan erini tark etmaslik xususiyatlari bor". Bu xarakter xususiyatlarining vujudga kelishi oʻzbek halqi tarixiy taraqqiyotidagi oʻziga xos xususiyatlar bilan bogʻliq. Masalan, Markaziy Osiyo, xususan, hozirgi Oʻzbekiston xududida mavjud boʻlgan bir necha feodal davlatlar, xonliklarning siyosiy-iqtisodiy jixatdan parchalanganligi, ular urtasidagi tez-tez boʻlib turadigan qonli toʻqnashuvlar, xujalik yurgizishdagi patriarxal usullarning mavjudligi, urugʻ - aymoqchilik, urf - odatlarining saqlanib qolishi va nixoyat dexkonchilik qilish uchun sugʻoriladigan yaroqli erlarning cheklanganligi kabi omillar, oʻzbek halqi xarakteridagi shu xislatlarni vujudga keltirib chiqaradi.

Oʻzbek oilalarida bir necha avlod vakillari (xatto 3-4 avlod) bir biridan ajramagan holda birgalikda bir hovlida bir mahallada yashab kelishgan. Shuning uchun ilgarilari mavjud boʻlgan katta oila ichida, bir necha avlod vakillari

yashayotganligini uchratishimiz mumkin. Oila boshlig‘i bo‘lgan Ota ug‘illarini uylantirgandan keyin ham uzoq vaqt ularni mustaqil oila qilib ajratib yubormagan. Yangi oila qo‘rgan o‘g‘il, katta oila boshlig‘i bo‘lgan ota qo‘l ostida ishlab xujalik yurgizish ishlarida unga yordam bergan. Agar yangi oila ota-ona bag‘ridan ajralib chiqqan taqdirda ham, ular oilasi uchun Ota uncha uzoq bo‘lmagan joydan xovli yoki er sotib olib bergan, yoxud o‘z eridan uy qo‘rish uchun joy ajratib bergan. Yangi oilaning ko‘ndalik extiyoji uchun zarur bulgan uy buyumlari ajratib berilgan. Lekin shunda ham Ota o‘z erini parchalanib ketishiga yul qo‘ymagan, o‘g‘il bola qo‘l ostida uning erida ishlagan, xo‘jalik yurgizishda Otaga yordam berib kelgan. Buning boisi nimada, nima uchun O‘rta Osiyo halqlarida, xususan dexkonchilik bilan shug‘ullanuvchi halqlarda patriarxal munosabatlar oila va xo‘jalik yurgizish soxalarida nisbatan uzoq saklanib turdi?

Malumki, so‘g‘orib dexkonchilik bilan shug‘ullanuvchi halqlarda, ayniqsa, O‘rta Osiyo sharoitida er juda katta iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Kishin - yozin ham katta ko‘ch bilan ishlashni talab qiladigan sharoitda ishchi ko‘chlari va erning parchalanib ketishligi, erni ishlash, xosil olishlikni ancha qiyinlashtirib qo‘ygan bo‘lar edi. Shuning uchun ham O‘zbekistonning o‘troq halqlarida juda katta, xatto uch-to‘rt avlod vakillarini o‘zida birlashtirgan oilalar mavjud bo‘lgan. Farzandlar oila boshlig‘i qo‘l ostida ishlab unga iqtisodiy jixatdan qaram bulgan. Ota yoki oiladagi bosh ug‘il bu oilaning boshlig‘i bo‘lgan. Uning so‘zi, fikri oilaning boshqa azolari uchun qonun darajasida bulgan. Xujalik yurgizishda bunday patriarxal uklad xokim bo‘lgan halqlarning deyarli xammasida, oila boshlig‘ini, kattalarni ho‘rmatlash, ularning aytganini to‘xtovsiz bajarilishi odat to‘sini olgan va keyinchalik u mustaxkamlanib **halqning xarakter xislati**ga aylanib kelgan.

Oilaning o‘zaro munosabatlarida malum yosh guruxidagi har bir kishi albatta, o‘zidan yuqori yoshda turgan kishilarga itoat etgan, ularga hurmat extirom ko‘rsatilgan. Bu albatta, yirik oilalarning birlashib yashash zaruriyati mavjud bo‘lgan sharoitlarda ularning parchalanib ketmasligi uchun katta ahamiyat kasb etgan. Bundan tashkari, o‘zbeklarda aka-ukalar, yoki qarindosh urug‘lar urtasidagina emas, shuningdek, qo‘ni-qo‘shnilar bilan ham yaxshi munosabatlar o‘zaro yordam va hamqorlik ko‘rsatish kabi xislatlar ancha rivojlangan. Qadim

vaqtlardayok bir urug‘, yoki kabila bir maxalla yoki butun bir kishloqda yashagan. Kamdan kam xollardagina begona urug‘ yoki kabila vakili notanish joylarga ko‘chib borgan. Xozir ham ko‘p kishloqlarda maxalla qarindosh urug‘chilik tamoyili asosida shakllanadi. Demak, yon kushni ayni vaqtda sizning yaqin qarindoshingiz hamdir. Shuning uchun qadim vaqtlardayok bir oilada ovqat pishirilsa, albatta, ko‘shniga, qarindoshnikiga chiqarilgan. Ko‘shning yaxshi ko‘nida ham, aziyatli ko‘nida ham birinchi bo‘lib devormiyon qo‘shni xizmat qiladi. Qo‘shnining uyidagi marakaga qatnashmaslik, ayniqsa, taziyali marosimlarda ishtiroq etmaslik, o‘zbeklar uchun katta ayb xisoblanadi. Shuning uchun ham bizda qo‘shni to‘g‘risida juda obrazli maqollar yaratilgan: "Xovli olma, qo‘shni ol", "O‘zoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni yaxshi", "Yon qo‘shni - jon qo‘shni" va hokazo.

Bundan tashqari milliy tabiatimizda mehr - oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu - xayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar, bag‘rikenglik, mehmondustlik, oq ko‘ngillilik xususiyatlari mavjud. Bunday hamjixatlik bir-birini qo‘llab turishlik faqat qo‘shnilar urtasidagina bulib qolmasdan, butun maxalla va kishloq axolisi biror xonadonda aza borligini eshitib qolsa, vafot etgan kishini yaxshi tanish-tanimasligidan katiy nazar, marxum bilan vidolashmok uchun vaqtini ayamasdan, yumushini tashlab bulsa ham, marxumning uyiga kelib, hamdardlik bildiradi, qo‘lidan kelgan yordamini ko‘rsatadi. Marxumning tobuti mozorga borg‘uncha elkama-elka ko‘tarilib boriladi. Yulda uchragan har bir kishi - u otda bo‘lsa ham, mashinada bo‘lsa ham tushib bir necha qadam tobutni ko‘tarishib borishni o‘zining insoniylik bo‘rchi, deb xisoblaydi.

Qo‘ni - qo‘shni, maxala - kuyni va xamkishloqlarning bunday bir - birini qullab-kultiklab turishlari bir-birlarining manfaatlarini ximoya qilishlari kishilarning uzoq davrlar mobaynida birgalikda yashab kelishi, maxalla va kishlok axolining bir-birlariga qarindosh urug‘chilik iplari bilan bog‘langanliklari natijasidir. O‘rta Osiyoda kichik-kichik o‘ziga mustaqil bo‘lgan xonliklarning mavjudligi yirik birlashgan xokimiyat tomonidan mamlakat mikiyosida mamuriy, xo‘jalik ishlarini rejali rivojlantirmasligi, buning ustiga maxalliy amaldorlarning ochko‘zligi, davlat va halq manfaatlaridan ko‘ra ko‘proq, o‘z cho‘ntaklarini uylashi

natijasida, ko‘p yirik xujalik ishlari- kanal qazib so‘v chiqarish, ariqlarni tozalash, machit va boshqa binolarni ko‘rish, xosilni yig‘ib-terib olish va shunga uxshash ko‘pchilik mehnatini talab qiladigan ishlarni halq o‘zi "xashar" yordamida bajargan. Shuning uchun maxallada va qo‘shnilar orasida bo‘lib turadigan xasharlarga chiqish har bir keksayu yoshning muqaddas bo‘rchi xisoblangan.

Milliy xarakterni halq o‘zida namoyon etadi. Lekin, millat xarakteri ayrim shaxslar xarakterining oddiy yig‘indisi emas. U ommaviy ko‘ch sifatida, individual xarakterlarning umumiy bo‘lgan xislatlari ijtimoiy jixatdan qayta ishlanib, yangi maxsus sifatga aylangan vaqtda tarkib topib namoyon buladi. Masalan, xor ovozi xor qatnashchisining ovoziga uxshamaganidek, milliy xarakteri ham birorta millat vakilining xarakteriga uxshamaydi, yoki millat xarakteri hech bir millat vakilida tulaligicha aks etmaydi.

Milliy xarakter o‘zgarmas, turg‘o‘n narsa ham emas. U tarix mahsuli. Shuning uchun ham uni vujudga keltirgan tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan u ham malum darajada o‘zgaradi, xatto bir ijtimoiy tizimning o‘zida ham u ayrim xislatlarni paydo qilib turish mumkin. Tarix - avlodlarning birini urniga ikkinchisining kelishidan iboratdir, ularning har biri avvalgi barcha avlodlarning qoldirgan materiallaridan, ishlab chiqaruvchi ko‘chlardan foydalaniladi. Milliy xususiyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan.

Milliy xarakter umumbashariy xususiyatlarga zid bo‘lmaydi. Shuning uchun ham uni boshqa millat va elatlar xarakteridan ajratib quyishi mumkin emas. Har bir halq boshqa halq bilan yaqin ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishganda undan o‘zida yuq narsalarni oladi va o‘zidan ham ularda bo‘lmagan narsalarni beradi. Lekin, boshqa halqlardan olingan bu xarakter xislatlari, millat vakillari tamonidan o‘zlashtirilganda, aynan, o‘zgarishsiz ko‘chirma olmay, o‘ziga xos milliy ifodani oladi.

## 1-bob buyicha xulosalar:

Shunday qilib, «PSİXOLOGİYa FANİDA XARAKTER MUAMMOSİ» mavzudagi dissertatsiyamizning ushbu bobida kuyidagi masalalar tadqiq qilindi va aniqlandi:

- Shaxs xarakterining psixologik tarifi
- Xarakterni o'rganish tarixi va bu boradagi psixologik nazariyalar
- Xarakter to'zulishi va muhim sifatlari
- Xarakter aktsentuatsiyasi
- Xarakterning shakllanishi
- Milliy xarakter haqida.

# 2-bob: MUSTAQİL DAVR PSİXOLOGİYaSİ NEGİZİ – TARBİYaDİR

## 2.1. Hozirgi zamon tarbiya jarayoni xususiyatlari

**Tarbiya** – o‘qituvchi va talaba (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo‘lib, tarbiyalanuvchining malum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli tasir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama o‘stirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida har tomonlama voyaga etkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonidir. Tarbiyaviy faoliyatda tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, manaviy boyligi va his-tuyg‘ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi.

Tarbiyaviy faoliyatda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun talabaning ongi, hissiyoti va irodasiga tasir etib boriladi. Agar bularning birortasi etibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiyaviy faoliyatga o‘qituvchi rahbarlik qiladi. U talabalar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

**Tarbiya mohiyati** turlicha bo‘lib, uning mazmuni mamlakatning ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslanadi. Tarbiya mohiyati turli davrda har xil ifodalangan bo‘lsa ham, ammo yo‘naltiruvchanlik xususiyatiga ko‘ra bir-biriga o‘xshash g‘oyalarni ifodalaydi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liqligi qadimdan o‘z isbotini topgan. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi - komil insonni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgach, hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. İslohotlar

respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo‘li deb etirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish vazifasi o‘sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O‘zbekiston Respublikasining «Talim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti İ.A.Karimovning qator asar va no‘tqlari, chunonchi, «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Yuksak manaviyat –engilmas kuch» nomli asarlarida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan. Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo‘lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan belgilangan va puxta o‘ylab tuzilgan tarbiyaviy rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiyaviy faoliyatda uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o‘zini-o‘zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o‘rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, amalga oshishida malum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g‘oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi:

*Tarbiyaviy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari.* Tarbiyaviy faoliyat faoliyat nuqtai nazaridan o‘zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

- aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayon;
- ko‘p qirrali jarayon;
- uzoq muddatli jarayon;
- uzluksiz jarayon;
- yaxlit tizimlilik jarayon;
- ikki tomonlama aloqa jarayoni;
- qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.




**Tarbiyaviy faoliyatning umumiy moxiyati**

Tarbiyaviy faoliyatning **aniq maqsadga yo‘naltirilganligi** zamonaviy talqinda tarbiyaviy faoliyat o‘qituvchi va talaba (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, tarbiyaviy faoliyatda o‘qituvchi va talabalarning faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

**Tarbiyaning ko‘p qirrali jarayonligi**, tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subektiv va obektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Subektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, obektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi.

Tarbiyaviy faoliyat **uzoq muddat davom etadi.** Tarbiya natijalari tez suratda yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. O‘zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada tasirchan hamda beqaror bo‘ladi.

Tarbiyaviy faoliyat jarayonning yana bir muhim xususiyati uning **o‘zluksizligidir**. Tarbiyaviy faoliyat talabalar va o‘qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayoni. Talabalarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo‘naltirilgan, bir-birini to‘ldiruvchi, boyitib boruvchi,

takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, talim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni oʻzluksiz oʻtkazilishiga erishish lozim.

Tarbiyaviy faoliyatning **yaxlit tizimli tashkil etilishi** shundan iboratki, tarbiyaviy faoliyatning maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish gʻoyasi amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga malumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda oʻzlashtiriladi. Tarbiyaviy faoliyatning yana bir xususiyati **ikki tomonlama aloqa -** ikki yoʻnalishda, yani, oʻqituvchining talabaga nisbatan koʻrsatadigan tasiri (toʻgʻri aloqa) hamda talabaning oʻqituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tishkil etiladi.

Tarbiyaviy faoliyatda **qarama-qarshiliklar** talabalarda oʻz tushunchalariga muvofiq paydo boʻlgan dastlabki sifatlar bilan oʻqituvchining talabalarga qoʻyadigan talablari va ularni bajarish imkoniyatlari oʻrtasida ziddiyatlarning kelib chiqishidan paydo boʻladi. Bazan bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq kelmasligidan yoki oʻqituvchining talabalar yosh xususiyatlarini, fel-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sogʻlomligini bilmasliklari oqibatida ziddiyatlar kelib chiqadi.

Oʻqituvchining tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligi ushbu jarayonning qonuniyatlari va qoidalarini egallashi bilan belgilanadi. Tarbiyaviy faoliyatning asosini ijtimoiy hayotning obektiv talablari va insonning ijtimoiy mohiyatini aks ettiruvchi bir necha qonuniyatlari tashkil etadi. Tabiat va jamiyatdagi har qanday murakkab hodisada obektiv ravishda mavjud boʻladigan barqaror aloqalar kuzatiladi. Bunday aloqalar **qonuniyat** deb ataladi. Ushbu qonuniyatlarga tarbiyaviy faoliyatda ham amal qilinadi. Tarbiya qonuniyatlari mohiyatan tarbiyaning oʻziga xos xususiyatlarini, shaxsning rivojlanishini belgilab beradi.

***Tarbiyaning birinchi eng muhim qonuniyati*** – ijtimoiy muhitning obektiv va subektiv omillariga bogʻliqligidir. İjtimoiy muhit asosidagi tarbiya mazmuni moddiy ishlab chiqarish usuli, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzum hamda milliy mafkura gʻoyalari asosida qaror topadi.

***Tarbiyaning ikkinchi qonuniyati*** uning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligidir. Shaxs rivojlanishi tarbiyaning g‘oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog‘liq. Tarbiyachi shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini mukammal bilgan holda, shaxsga to‘g‘ri tavsif berishi va tasir ko‘rsatishi lozim.

***Tarbiyaning uchinchi qonuniyati***, faoliyat va munosabat birligini etirof etish – shaxsning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchining faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq oqilona tashkil etilsa, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabat shunchalik samarali bo‘ladi. İjtimoiy munosabatlar jarayonida ijtimoiy tarbiyaning maqsadlari amalga oshiriladi.

***Tarbiyaning to‘rtinchi qonuniyati***, tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy tasirga ega ekanliklari, ularning o‘zaro munosabatlari hamda faoliyatlari o‘rtasidagi bog‘lanishning mavjudligi va samaradorligi bilan belgilanadi. O‘qituvchi va guruh jamoasining tarbiyalanuvchiga pedagogik tasiri o‘zaro munosabatlar tizimining oqilona rejalashtirilishiga bog‘liq. Tarbiyachi uchun tarbiyalanuvchi hamisha tarbiyaviy obektdir. Biroq tarbiyalanuvchi tarbiyachi bilan ongli ravishda erkin munosabatda bo‘lishga erishsa, tarbiyaviy munosabatlar samarali xarakter kasb etadi.

Tarbiyaviy faoliyatning ushbu qonuniyatlari bilan birga tarbiyaviy faoliyatning o‘ziga xos qator **qoidalari** ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog‘liq hodisa ekanligi;
- shaxsni jamoada tarbiyalanishidagi o‘rni;
- tarbiyalanuvchi shaxsga nisbatan talabchan bo‘lish va uning shaxsini chuqur hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchining yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishini taminlash.

**Tarbiya tamoyillari.** Tarbiya tamoyillari deb, yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmun va yo‘nalishiga qo‘yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g‘oya va qoidalar yig‘indisiga aytiladi. Tarbiya tamoyillari o‘qituvchi va tarbiyalanuvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar bo‘lib, yosh avlodni

tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg‘or talimotlar g‘oyalariga hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya tamoyillari tarbiyaviy faoliyat qonuniyatlarini aks ettiradi va tarbiyaning samaradorligini taminlaydi. Tarbiyaning **eng muhim tamoyillari** quyidagilardan iborat:

- Tarbiyaning malum bir maqsadga yo‘naltirilganligi va g‘oyaviyligi.
- Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustunligi.
- Tarbiyada milliy va umumbashariy qadriyatlarning etakchi ekanligi.
- Tarbiyada izchillik va tizimlilik.
- Tarbiyani ijtimoiy hayot qonuniyatlari bilan bog‘lab olib borish.
- Tarbiyani mehnat faoliyati bilan bog‘lash.
- Tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan cheksiz hurmatni saqlash.
- Tarbiyada talabaning yosh va alohida shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish.
- Jamoada va jamoa azolari yordamida tarbiyalash.
- Tarbiyaviy faoliyatda talaba xulqidagi ijobiy hislatlarga tayanib, salbiy odatlarini yo‘qotish.

1. **Tarbiyaning malum bir maqsadga yo‘naltirilganligi va g‘oyaviyligi.** O‘qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifalarini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur. Bu sohada mamlakatimiz xalq talimi xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, etuk mutaxassis – komil shaxsni tarbiyalashdan iborat.

2. **Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustunligi.** Tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va o‘spirinning betakror va o‘ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini ezozlash lozim. Tarbiyada demokratiyaning ustunligi, bu tarbiyani mamuriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo‘yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining bir-biriga o‘zaro ishonchi, hamkorlik asosida pedagogik munosabat mohiyatini ijobiy tomonga yo‘naltirish demakdir.

3. **Tarbiyada milliy va umumbashariy qadriyatlarning etakchi ekanligi.** Xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan turib, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini bola qalbida singdirish mumkin emas.

4. **Tarbiyada izchillik va tizimlilik.** Tarbiyaga yaxlit tizimli jarayon sifatida yondashish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo‘naltirilganlik darajasini

belgilab beradi. Pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni Tarbiyaviy faoliyatning barcha ishtirokchilari tomonidan tan olinadi. Tarbiyada izchillik juda muhimdir. Tarbiyalanuvchilarga nisbatan birdaniga koʻplab tarbiyaviy talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Oʻqituvchilar talabalar bilan oʻzaro munosabatlarida tarbiyaga zid boʻlgan hatti harakatlarni sodir etmasliklari lozim.

**5. Tarbiyani ijtimoiy hayot qonuniyatlari bilan bogʻlab olib borish.** Yosh avlodning oʻsib ulgʻayishi va shaxsning shakllanishiga hayot, ijtimoiy muhit qonuniyatlari muntazam tasir etadi. Muhit ijtimoiy omillarning eng muhim xususiyati boʻlib, u shaxsga ijobiy yoki salbiy tasir koʻrsatishi mumkin. Muhit deganda, shaxsning shakllanishiga tasir etuvchi tashqi olam voqealari, hodisalar majmui tushuniladi.

**6. Tarbiyani mehnat faoliyati bilan bogʻlash.** Talim muassasalarida talabaning mehnat faoliyati va unumli mehnat qilishi bilan shaxs oʻz qobiliyati va istedodini namoyon qiladi va oʻz maqsadiga erishadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun eng qadimiy va sinalgan vositadir.

**7. Tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan cheksiz hurmatni saqlash.** Talabalarni ijtimoiy tarbiyalashda ularning shaxsini hurmat qilish oʻqituvchining insonparvarlik tuygʻularidan kelib chiqadi. Talaba shaxsini hurmat qilish, ularga cheksiz mehr-muxabbat koʻrsatish va ularga ishonish shart. Bolalarga nisbatan hurmat tuygʻusi ularning kuchiga kuch qoʻshadi, oʻz imkoniyatlariga ishonch tuygʻusini shakllantiradi, tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

**8. Tarbiyada talabaning yosh va alohida shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish.** Muayyan bir yosh davriga xos boʻlgan anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlar yosh va shaxsiy xususiyatlar deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni inobatga olgan holda tarbiya mazmuni, shakl va metodlari tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiyaviy tasir kuchli boʻladi.

**9. Jamoada va jamoa azolari yordamida tarbiyalash.** Tarbiyaviy faoliyatda talabalarning jamoa boʻlib birlashishlari, ularda oʻzaro yordam tuygʻusini oʻstirishga xizmat qilishi lozim. Samarali tarbiyaviy faoliyat jamoa azolarining qobiliyat va istedodlarini rivojlantiradi, bola jamoada har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyat paydo boʻladi.

**10. Tarbiyaviy faoliyatda talaba xulqidagi ijobiy hislatlarga tayanib salbiy odatlarini yo‘qotish.** Mahoratli o‘qituvchilar o‘z talabalarining shaxsiy fazilatlarini, xarakteridagi salbiy va ijobiy xususiyatlarni puxta bilib, tarbiyaviy faoliyat olib boradilar. Tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun o‘qituvchi tarbiyalanuvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib faoliyat yuritishi lozim.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda mavzuga quyidagicha xulosa qilish mumkin. Avvalo o‘qituvchi tarbiyaviy faoliyatni muntazam yo‘lga qo‘yishi uchun quyidagi *jarayonlarni bilishi kerak*:

- Milliy mafkura g‘oyalari asosida talabalar manaviyatini shakllantirishning maqbul metod va vositalarini aniqlash, milliy tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqa olish.
- Milliy mafkura g‘oyalari asosida oliy talim tizimida talabalarning manaviyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqa olish, talabalar manaviyati shakllanganlik darajasini o‘rganishga xizmat qiluvchi mezonlar asosida manaviy-marifiy ishlarni tashkil etish.
- Talim-tarbiyaning uzviyligini taminlash maqsadida o‘quv va qo‘shimcha adabiyotlar, ommaviy axborot vositalaridagi materiallarni didaktik qayta ishlash.
- Talabalarda ijtimoiy faollikni tarkib toptirish, ularda fuqarolik burchini anglash va o‘ziga nisbatan talabchanlikni tarbiyalash, manaviy-marifiy ishlarni demokratik tamoyillar asosida tashkil eta olish.
- Talabalarda umummadaniy va amaliy hayotiy ko‘nikmalar, yuksak manaviyat va ilmiy tafakkurni rivojlantira olish.
- Barkamol shaxs modeli asosida manaviy-marifiy ishlarni tashkil etish.
- Oliy talimda olib boriladigan manaviy-marifiy ishlarni samarali tashkil etish.
- Oliy talimda olib boriladigan manaviy-marifiy ishlarni samarali tashkil etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.
- Pedagogik munosabatlar va talim-tarbiya jarayonini insonpar-varlashtirish va demokratlashtirish yo‘llarini bilish.
- Manaviy-marifiy ishlarni insonparvarlik g‘oyalari va hamkor-lik pedagogikasi tamoyillari asosida tashkil etish.

Milliy g‘oyani talabalar ongiga singdirish tarbiyaviy ishlar jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiyaviy jarayon oliy talim o‘quv yurtlarida o‘ziga xos mohiyat kasb etadi. Oliy talim muassasalaridagi mutaxassislar, talim yo‘nalishi xodimlari milliy g‘oyasi bilan qurollangan bo‘lib, uni har bir talaba ongiga etkazish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

O‘quv yurtlarida tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish asosiga ilg‘or milliy, manaviy-axlohiy qadriyatlar va mezonlar, xalq pedagogikasi, marosimlar, bayramlar, o‘yinlar va boshqalar qo‘yilishi kerak. O‘quv yurtlarida maxsus tashkil etilgan tarbiyaviy jarayon bo‘lg‘usi mutaxassislarni hayotdagi **uchta asosiy rolni** – *fuqarolik, xodimlik* va *oilaparvarlik*ni bajarishga tayyorlashi kerak. O‘zbekiston jamiyatining milliy mafkurasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqimizning asosiy maqsad - muddaolarini ifodalaydigan, uning o‘tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog‘laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimidir.

***Milliy mafkura***:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;
- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak manaviyati, anana va udumlari, ulug‘ bobokalonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi;
- adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g‘oyalari hamda xalqimizning ishonch va etiqodini aks ettiradi;
- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini taminlashga xizmat qiladi;
- jamiyat azolarini, aholining barcha qatlamlarini O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;
- millati, tili va dinidan qati nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat va o‘zaro hurmat tuyg‘usini qaror toptiradi;
- jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda marifiy yo‘l bilan singdiriladi.

Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, jamiyatni sog‘lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o‘z muddaolariga erishishi uchun manaviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo‘lib kelgan. U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va masuliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan manaviy mezondir.

Xalqimizning o‘ziga xos turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatining ifodasi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, «Alpomish», «Shashmaqom» kabi sanat durdonalari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimizning ibratli hayoti ham milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardir. Mafkuramizning falsafiy asosini, avvalo, milliy-ijtimoiy tafakkurning mumtoz namunalari bo‘lgan dunyoviy bilimlar, jahon falsafasi durdonalari belgilaydi. Olam va odamning yaratilishi va takomillashib borishi haqidagi diniy va ilmiy qarashlar, halollik, poklik, mardlik, komillik g‘oyalari ham bugungi mafkuramiz shakllanishiga tasir o‘tkazadi.

Buyuk donishmand ajdodlarimizning ozodlik to‘g‘risidagi g‘oyalari, **Xorazmiy**ning dunyoviy kashfiyotlari va **Beruniy**ning ijtimoiy-axloqiy qarashlari, **Farobiy**ning adolatli jamiyat va **İbn Sino**ning dualizm talimoti, **Alisher Navoiy**ning komil inson haqidagi falsafiy mushohadalari, asrimiz boshidagi marifatparvar ziyolilar faoliyati ham milliy g‘oya va istiqlol mafkurasining teran tomirlaridir.

***İstiqlol mafkurasining*** falsafasi, uning mano-mazmuni, asosiy g‘oya va tamoyillari milliy davlatchiligiimzni qayta tiklab, jamiyatimizning taraqqiyot yo‘lini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan Prezidentimiz **İslom Karimov** asarlarida chuqur ifodasini topgan. Ularda mamlakatimizning rivojlanish yo‘li, uning o‘ziga xos xususiyat va qonuniyatlarining amalga oshish dialektikasi ilmiy nuqtai nazardan aniq belgilab berilgan. Milliy mafkurasining falsafiy asosi, shuningdek, qadimgi sharq, yunon, rim va boshqa falsafa maktablarining merosiga ham tayanadi. Xususan, **Sokrat, Platon**, **Aristotel** singari mutafakkirlarning asrlar davomida o‘z qadr-qimmatin yo‘qotmay kelayotgan fikrlari, jahon falsafasining o‘rta asrlar va yangi zamondagi namoyandalari qarashlari ham milliy istiqlol mafkurasi tamoyillarini asoslash va boyitish, ularga hayotiy ruh bag‘ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. **Konfutsiy**ning falsafiy hikmatlari, **Platon**ning «G‘oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» to‘grisidagi talimoti, **Gegel** dialektikasi, gumanistik zamonaviy falsafiy oqimlar ilgari surayotgan g‘oyalar ham milliy istiqlol mafkurasining umuminsoniy asoslaridandir.

***Tarbiya metodlari.*** Tarbiya «metodi», yunoncha «*metodos*» – «yo‘l», tarbiyaning oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lidir. O‘quv yurtida tarbiya metodlari tarbiyaviy ish oldiga quyidagi ***vazifalarni*** qo‘yadi:

- bu tarbiyalanuvchilarda tarbiyaviy sifatlarni yuzaga keltirish maqsadida ularning ongi, irodasi va sezgisiga tasir etuvchi usullardir;
- bu tarbiyaviy ishlar yo‘llari va usullarining o‘ziga xos majmui bo‘lib, ular shaxsning sifatlarini shakllantirish jarayonida zaruriy motivatsion sohalarni rivojlantirish hamda axloq ko‘nikmalari va odatlarini ishlab chiqish, ularni yaxshilash va takomillashtirish uchun foydalaniladi.

Tarbiya usuli umumiy metodning bir qismidir. Usullar, ko‘pincha, nomalum «*so‘qmoqlar*» bo‘lib, tarbiyachi ularni tezroq maqsadga erishish uchun o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan birga ochadi.

Tarbiyaning asosiy metodlari tizimi quyidagicha:

- ishontirish;
- ijobiy namuna;
- mashq qilish;
- talablar;
- xulqi ustidan nazorat;
- faoliyatning boshqa ko‘rinishlariga o‘tish.

Tarbiyalanuvchilarning ***mashg‘ulotdan tashqari bush vaktini rejalashtirishda asosiy*** *vazifalar*:

- ijtimoiy moslashuv zonasini tashkil etish va o‘qiyotganlarning ijtimoiy harakatchanligini ko‘rsatish;
- bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- o‘qiyotganlarni mustaqil o‘qish yo‘li bilan talimni davom ettirishga yo‘llash;
- har bir talim oluvchining qobiliyati, qiziqishi va ishtiyoqlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- talabalarni erkin vaqtdan unumli foydalanish, dam olish mahoratini egallashga o‘rgatish.

Mashg‘ulotdan tashqari bush vakt faoliyat tizimi ***ko‘p komponentli*** bo‘lib, unga o‘qiyotganlarning quyidagi faoliyatlari kiradi:

- o‘quv guruhi tarkibida;
- o‘quv yurti jamoasi tarkibida;
- individual (yakka tartibda);
- ijtimoiy birlashmalar va tashkilotlarda;
- klublar, to‘garaklar, muzeylarda;

- mehnat jamoalarida;
- alohida fanlarni chuqur oʻrganish chogʻida;
- oʻquv yurtidan tashqarida madaniy dam olishning turli shakllarida.

Talim oluvchilarning mashgʻulotdan tashqari bush vaktini rejalashtirishning oʻziga xosligi shundaki, uning har bir komponenti alohida loyihalashtiriladi va har doim ham pedagogik tasir doirasi bilan qamrab olinmaydi. Talim oluvchilarning mashgʻulotdan tashqari boʻsh faoliyati ***tizimini loyihalash shakllari*** boʻlib hisoblanadi:

- oʻquv yurtining ish rejasi;
- oʻquv yurtining talabalar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlari rejasi;
- oʻquv guruhlari talabalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar rejasi va boshqalar.

Oliy talim muassasalarida talabalar bilan olib boriladigan asosiy manaviy – marifiy ishlarning bosh yunalishlari:

- gʻoyaviy kurashchan va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash;
- manaviy barkamol shaxsni tarbiyalash.

Mazkur tarbiyaviy ishlarni tashkil etish pedagogdan yuksak kasbiy etika meyorlarini bilish, muloqot qoidalarini, tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishning oʻziga xos xususiyatlarini bilishni talab etadi.

## 2.2. Mustakillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari

Tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini oʻrganadi. Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir. **Tarbiya** – bu shaxsni ijtimoiy, manaviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning manaviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda tasir koʻrsatish jarayonidir.

Prezidentimiz **İ.A.Karimov**: «Talimning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. Oʻzining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega boʻlgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega boʻlamiz»,- deb takidlaganlaridek, «Talim toʻgʻrisida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bugungi kunda shaxs tarbiyasiga jiddiy etiborni qaratmoqda. Tasavvur qiling: ilmi zoʻr, katta ixtirolarga qurbi etadigan, qonunlarni yaxshi oʻzlashtirgan mutaxassis - manaviyatsiz,

tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lsa nima bo‘lishi mumkin? U o‘z manfaatini o‘ylaydi, Vatan uchun biror narsa qurbon qila olmaydi, chunki u - xudbin. Unda mehr oqibat, fidoiylik, vatanparvarlik, milliy g‘urur yo‘q. U muxtojlarga yordam bermaydi. Chunki unda tarbiya shakllanmagan.

Buyuk faylasuf **Konfutsiy**: «Eskini o‘zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo‘la oladi» degan edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida talim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o‘rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida ham qator o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuni takidlash lozimki, marifat - xalqimiz, millatimiz qonidadir. Ananaviy sharqona qarashga ko‘ra, marifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur manaviyat va go‘zal axloq degani hamdir.

Bir ijtimoiy jamiyatning ikkinchisiga almashishi, shuningdek, milliy mustaqillik va uning nematlari respublikamiz fuqarolarida tub o‘zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Milliy tuyg‘u, milliy qiyofa, milliy xarakter, milliy tab, milliy kuy, milliy raqs, milliy manaviyat, qadriyat hamda ruhiyat tasiri ostida o‘zining tub mohiyatini aks ettira boshladi. O‘tmishning boy merosi, uning ananalari milliy istiqlol tufayli o‘z egalariga qaytarib berildi. Fuqarolarning ijtimoiy ongi asta-sekin o‘zgarib borishi natijasida etnopsixologik xususiyatlar tiklana boshladi, milliy, umumbashariylik xislatlari o‘rtasida adolatlilik, teng huquqlilik aloqalari o‘rnatilmoqda, shovinizm turmushdan uzoqlashmoqda.

XXI asrda shaxs shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasini ortishida dinning, xususan, «Xadis» ilmining ahamiyati kattidir. Shaxslararo munosabatda tenglik, g‘amxo‘rlik, samimiylik, o‘zaro yordam, simpatiya, empatiya, hamdardlik, sevgi-muhabbat singari milliy xususiyatlarni tarkib toptirishda xadislarning roli yanada ortmoqda.

O‘zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik va istiqlol rejasi, bolalarga tasir o‘tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega, chunki uning asosida xalq ananalari yotadi. O‘zbek xalkining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o‘ynaydi. **Abdulla**

Avloniy aytganidek: «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir».

Yosh avlod tarbiyasida milliy ruhiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ananalar etakchi o‘rin tutmog‘i lozim (tarbiya etnopsixologik va etnopedagogik munosabat). Bular orqali yoshlarda *quyidagi fazilatlarni t*arbiyalash lozim:

- yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirish;
- xayrixohlik, odamlarga hurmat, mehr - shavqat;
- kattalarni xurmat qilish, ezozlash;
- muloyimlik;
- ishbilarmonlik, mohirlik, ishchanlik, iqtisodiy tafakkur;
- kichik yoshdan mehnatsevarlik;
- jismoniy baquvvatlik;
- ahloq odoblilik;
- oilaparvarlik;
- ayollarga hurmat;
- o‘zaro hamkorlikka intiluvchanlik.

Malumki, yoshlarning manaviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, talim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug‘ullanadilar. Tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarining hamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o‘zining ijobiy natijalarini berishi mumkin. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirish vazifalari ana shuni taqozo qiladi.

## 2.3. Xarakterni shakllantirish–shaxsni tarbiyalashning asosiy yunalishi sifatida

Malumki, odam ongining yuksak belgilaridan biri uning o‘zini anglashidir. Odamning o‘zini anglash o‘z navbatida shaxsning muhim belgisi hisoblanadi. Odam o‘z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va shu olamga tasir etuvchi subektdir. Odamning idrok etadigan, tasavvur qiladigan narsalari uning uchun obektdir. Ana shu nuqtai-nazardan olganda, odamning o‘zini anglashi subektiv ravishda o‘zini «men» deb his qilishida ifodalanadi. Odam ijtimoiy zot bo‘lganligidan unga o‘zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o‘zga kishilar bilan

qiladigan har turli munosabatlarda odamning o‘zini anglashi, o‘zini «men» deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi. Odam o‘zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o‘zining o‘tmishi va kelajagini anglashi, o‘z xuquq va burchini anglashi va nihoyat o‘zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi o‘zini anglashiga kiradi.

İnsonning tabiatini o‘zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga tasir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o‘sishi va o‘zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga tasir qiluvchi kuchli omil - inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Shunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo‘lib, u kishining individual hayoti davomida malum konkret omillarning tasiri ostida sekin-asta tarkib topadi. İlmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi *uchta faktorlar* tasirida tarkib topadi. Ulardan *birinchisi* odam to‘g‘ilib o‘sadigan tashqi **ijtimoiy muhit**ning tasiri bo‘lsa, *ikkinchisi* odamga uzoq muddat davomida sistemali beriladigan ijtimoiy **talim-tarbiya**ning tasiridir va nihoyat, *uchinchisi* odamga nasliy yo‘l bilan beradigan **irsiy omillar**ning tasiridir.

Bolalar maktab yoshiga etgach, shaxs shakllanishining yangi mazmuni boshlanadi. Kichik maktab yoshi o‘smirlik yoshi va katta maktab yoshi davrlarida shaxs shakllanishining yuqori bosqichi namoyon bo‘ladi. İnson shaxsini o‘rganish masalasi bilan falsafa, psixologiya, pedagogika kabi fanlar shug‘ullanadi. Hozirgi davrda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot obektiga aylanib bormoqda. Shunga qaramasdan, bir tomondan, insonni o‘rganishda differentsiatsiya xodisasi yuz bermoqda, ikkinchi tomondan, inson taraqqiyotining sintetik tavsifi bo‘yicha integratsiya holati ko‘zga tashlanmoqda. İnson bir qator fanlarning tadqiqot obektiga ekanligini yig‘iq tarzda tasavvur etish uchun uni biosotsial va sotsiobiologik jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiq. Malumki, inson hayoti va faoliyatining operatsional (o‘quv, operatsiya, harakat, malaka) mexanizmi uning ontogenezida funktsional mexanizmga o‘sib o‘tadi, binobarin, unda komillik belgisi shakllanadi, natijada u kamolot cho‘qqisining muayyan darajasiga erishadi.

İnson - jamiyat - tabiat - turmush munosabatlarini tekshirgan rus olimlari **S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, B.GAnanev** odamning ular bilan har xil turdagi va ko‘rinishdagi kauzal, strukturaviy, funktsional, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini taqidlab o‘tganlar.

►*Birinchidan,* inson u yoki bu aloqalar tizimiga binoan biologik mahsuli «Homo Sapiens» sifatida o‘rganiladi.

►*İkkinchidan,* tarixiy jarayonning ham obekti, ham subekti tariqasida shaxs tadqiq etiladi.

►*Uchinchidan,* individ muayyan ko‘lamda o‘zgaruvchan, taraqqiyotning genetik dasturiga asoslanuvchi alohida xususiyatli jonzot tarzida ilmiy jihatdan tekshiriladi. İnsonning jamiyat ishlab chiqarishining etakchi tarkibi, bilish, kommunikatsiya va boshqaruv subekti, tarbiya predmeti sifatida tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega. İnson va uning borliq bilan ko‘p qirrali munosabatga hamda aloqaga kirishishi quyidagi tarzda namoyon bo‘lishi mumkin:

►tabiatning biotik va abiotik omillari - inson;

►jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti - inson;

►inson - texnika;

►inson - madaniyat;

►inson va jamiyat - er va fazo.

XXI asrda ham odam individ, shaxs, subekt, komil inson sifatida tadqiq qilinishda davom ettiriladi, lekin har bir tushuncha mohiyatida sifat o‘zgarishlari yuz berishi mumkin.

Odamga individ sifatida tavsif berishda uning yosh davri, jinsiy va individual-tipologik xususiyatlariga asoslaniladi. Yosh davr sifatlari ontogenetik evolyutsiya bosqichlarida izchil ravishda namoyon bo‘ladi va takomillashuv jarayonida o‘z ifodasini topadi, jinsiy dimorfizm xususiyati esa ularga mos tushadi. İndividning individual-tipologik xususiyatiga konstitutsion (tana tuzilishi, bioximik individuallilik) holatlar, simmetriya va assimetriya juft retseptorlari, effektorlari funktsiyasi kiradi. Bu xususiyatlar va xossalar birlamchi hisoblanib, hujayra va molekulyar tuzilishning barcha darajalarida ishtirok etadi.

Yosh, jinsiy va individual tipologik xususiyatlar sensor, mnemik, verbal va mantiq psixofiziologik funktsiyalari dinamikasi hamda organik ehtiyojlar tuzilishini aniqlaydi. İndividning bu xususiyatlarini ikkilamchi deb atab, ularning integratsiyasi temperamentida va tug‘ma mayllarda ifodalanilishini taqidlab o‘tish joiz. Yuqoridagi sifatlar rivojining muhim shakli ontogenetik evolyutsiyadan iborat bo‘lib, ular filogenetik dasturga asoslanib hukm suradi. Yosh va individual o‘zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti tasiri ostida har xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. İndividning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatlari tasir etib, uning individual o‘zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi.

İnsonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, yani uning jamiyatda egallagan o‘rni) orqali ifodalanadi. Status negizida doimiy o‘zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funktsiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo‘nalganlik shaxsni faollashtiradi. Status, rol qadriyatga yo‘nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsning tarifi **xulq** motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fel-atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar sifatitida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o‘zaro tasirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. İnsonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl - uning jamiyatdagi hayot yo‘li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi. İndivid, shaxs va subekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga etibor qilishi zarur:

- inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari);
- insoning o‘ziga taalluqli asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyutsiya;
- inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o‘zaro aloqalari, shaxsning tashqi tasirlariga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar.

Uch xil hususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki, faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallashning *interiorizatsiya va eksteriorizatsiya* amalga oshadi.

Odamning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati jarayonida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatining funktsional tizimi jarayonlari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni, kishining sotsial tajribalarini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining idroki, tafakkuri, hayoli, hissiyotlari va irodasini bir so‘z bilan aytganda, voqelikka bo‘lgan ongli munosabatini hamda o‘z harakatlari va hulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi.

Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va hatti-harakatlari shaxsning hayoti faoliyatida malum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo‘lgan hamda shartli ravishda **to‘rtta** o‘zaro mustahkam bog‘langan funktsional bosqichlarga birlashtiriladi:

*Birinchisi* - boshqaruv tizimi;

*İkkinchisi* - stimullashtirish tizimi;

*Uchinchisi* – stabilizatsiyalash tizimi;

*To‘rtinchisi* - indikatsiyalash tizimi.

Shaxsning ana shu sotsial ahamiyatga ega bo‘lgan barcha sifatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilaydi.

*Birinchi tizimining* hosil bo‘lishida analizatorlar o‘rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar katta rol o‘ynaydi. Biroq, bu ilgari yuqorida taqidlab o‘tganimizdek, ontogenez jarayonida filogenetik analizatorlar o‘rtasidagi aloqa vaqtli aloqalar bilan organik jixatdan qo‘shilib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida pertseptiv tizimiga o‘tib ketadigan yuksak darajada integratsiyalangan malum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko‘rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot-faoliyati jarayonida o‘zaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensor - pertseptiv

uyushishning yagona funktsional dinamik tizimini yaratadi. İnsonning sensor - pertseptiv jihatlari doimo takomillashib boradi.

*İkkinchi tizim* barqaror psixik holatlarni o‘z ichiga oladi. Bu holatlar bolaning aniq maqsadni ko‘zlovchi va foydali faoliyatining ongli subekt sifatida bola boshlagan ilmlarining dastlabki yillaridayoq shakllana boshlaydi. Temperament, intellkt, bilim va munosabat ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.

*Uchinchi tizim* - shaxsni arbob sifatida stabilizatsiya tizimidir. Yo‘naltirilganlik, qobiliyat, mustaqillik va xarakter uning tarkibiy qismini tashkil etadi: *Yo‘naltirilganlik* - shaxsning integral va generalizatsiya qilingan xususiyatidir; *İntegral*- (lot. «butun, tiklangan») - uzviy bog‘liqlik, butunlik, birlikdir; *Generalizatsiya*- (lot.«umumiy, bosh») - shartli va shartsiz reflekslarning umumlashishi.

Yo‘naltirilganlik bilim, munosabatlarning hamda shaxsning xulq-atvori va xatti - harakatlarida ijtimoiy ahamiyat etakchilik qilgan motivlarning bir butun ekanligida o‘z ifodasini topadi. Bu xususiyat odamning dunyoqarashida, qiziqishlarida va manaviy ehtiyojlarida namoyon bo‘ladi. Yo‘naltirilganlik tuzulishida **g‘oyaviy etiqod** katta rol o‘ynaydi. G‘oyaviy etiqod - bu bilimning, o‘sha shaxsga xos bo‘lgan intellektual, emotsional va iroda sifatlarining sintezi, g‘oyalar va xatti - harakatlar bir butunligining negizidir.

*To‘rtinchi tizim* o‘z ichiga shunday xususiyatlar, munosabatlar va xatti-harakatlarni oladiki, ularda real shaxslarning ijtimoiy «o‘y - fikrlari va xis - tuyg‘ulari» aks ettiriladi. Ular bu shaxslarning siyosiy jihatdan ongli, ijtimoiy taraqqiyotning masul arboblari sifatida xulq-atvorini belgilab beradi. Bunga gumanizm, kollektivizm, optimizm va mehnatsevarlik fazilatlari kiradi.

### 2.3.1. Xarakter shakllanishiga tasir etuvchi omillar va shart-sharoitlar

Shaxs shakllanishi haqida gapirar ekanmiz, albatta u yashayotgan muhit, kishilar, jamiyatning roli juda kattadir. Mana masalan, biron mahallada inson shaxsining tarkib topishiga faol tasir ko‘rsatuvchi besh yuzta o‘ziga xos ijtimoiy

muhit bor degan manoni bildiradi. Bu erda shunday bir savol to'g'iladi. Tashqi muhit inson shaxsining tarkib topishiga qanday tasir qiladi?

*Birinchidan*, ijtimoiy muhitdagi turli xodisalar odamning ongiga bevosita tasir qilib, unda chuqur iz qoldiradi. *İkkinchidan*, tashqi ijtimoiy muhit tasirining chuqurroq va mustahkamroq bo'lishiga odamning o'zi yordam beradi. Malumki, bolalar o'z tabiatlariga ko'ra, ilk yoshlik chog'laridan boshlab nihoyat darajada taqlidchan bo'ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha xatti-harakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu xatti-harakatlarni, yaxshi-yomon fazilatlarni o'zlariga singdirib boradilar. Shuning uchun bolalar oilada, ko'cha - kuyda katta odamlarning har bir harakatlarini, o'zaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar.

İnson shaxsining tarkib topishida tashqi **ijtimoiy muxit**ning roli haqida gap borar ekan, shuni ham taqidlab o'tish zarurki, ayrim g'ayri tabiiy hodisalar inson shaxsining tarkib topishida tashqi muhit tasirining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini to'la tasdiqlaydi. Biz ayrim tasodifiy hollarda odam bolalarining yovvoyi hayvonlar muhitiga tushib qolish hodisasini nazarda tutayapmiz. Hayotda bunday hodisalar juda siyrak bo'lsa ham har holda uchrab turadi. Masalan, Hindistonli doktor Sing Kalkutta yaqinidagi o'rmonzorda bo'ri bolalari bilan birga ikkita odam bolasining ham to'rt oyoqlab yugurib yurganini ko'rib qoladi. Keyin ularni poylab, qarorgohlarini topib bolalarni olib ketadi. Ulardan biriga Amala, ikkinchisiga Kamala deb nom qo'yadi. Shu narsa xarakterliki, bolalar yoshlikdan bo'ri muhitiga tushib qolganliklari tufayli, fel-atvorlari, xatti-harakatlari jihatidan bo'rilardan farq qilmas edilar. Nutq yo'q, demak, tafakkur ham nihoyat darajada cheklangan edi. Juda katta qiyinchiliklar bilan qayta tarbiyalanilayotgan bo'ri muhitidagi bolalar shamollash natijasida o'lib qoladilar. Bu hodisa odamning shaxs sifatida rivojlanishi uchun eng avval insoniy muhit, yani ijtimoiy muhit bo'lishi kerakligini to'la tasdiqlaydi.

Shaxs va uning psixologiyasiga tasir etuvchi *ikkinchi omil* - **talim-tarbiya**ning tasiridir. Malumki, talim-tarbiya inson ongini shakllantiradi, uning dunyoqarashi, etiqodi, hayotta bo'lgan munosabatini tarkib toptiradi. Agar bolalarning ruhiy taraqqiyotlari va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi faqat tashqi ijtimoiy muhit bilan talim-tarbiyaning o'zigagina bog'liq bulganda edi,

unday paytda biz bir xilda suniy va aynan bir xil talim-tarbiya tizimini tashkil qilib, har tomondan bab-baravar taraqqiy etgan va deyarli bir xil shaxsiy xususiyatlarga ega kishilarni etishtirib chiqarar edik. Vaholanki, bunday bo‘lishi mumkin emas. Shuni aytib o‘tish kerakki, bola shaxsining tarkib topishiga talim-tarbiyaning tasiri deganda, albatta, birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, yani bog‘cha, maktab, internat, litsey va kolledjlarda beriladigan talim-tarbiya tushuniladi. Biroq bundan oilada bolaga beriladigan talim-tarbiya mutlaqo mustasno emas! Oiladagi umumiy ijtimoiy muhitdan tashqari beriladigan talim-tarbiyaning roli kattadir. Bola tarbiyasi bilan sistemali sho‘g‘ullanadigan va umuman sho‘g‘ullanmaydigan oilalarga misollar keltirish mumkin.

Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi **ijtimoiy muhit** va **tarbiya**ning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Yuqorida aytib o‘tilgan ikkita omildan tashqari *uchinchi omil* ham mavjud - bu **nasliy xususiyatlar**dir. Odamga nimalar nasliy beriladi? Odamga nasliy yo‘l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan, tana tuzilishi, sochi va ko‘zlarini rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari to‘g‘ma berilishi mumkin. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, yani uning aqliy tomonlari bilan bog‘liq bo‘lgan sifatlari nasliy yo‘l bilan, yani to‘g‘ma ravishda berilmaydi. Nihoyat, nodir hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematik qobiliyatlariga nasliy yo‘l bilan berilishi mumkin. Bunday imkoniyatlarning amalga oshirilishi, yani ro‘yobga chiqishi uchun albatta malum sharoit bo‘lishi kerak. Hozirgi kunda xalqimiz orasidan etishib chiqqan istedodli olimlar, muhandis-ixtirochilar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblari, istedodli artistlar, rassomlar va boshqa kishilarimizga nasliy yo‘l bilan berilgan barcha imkoniyatlarning ro‘yobga chiqishi uchun har qanday sharoit maydonga kelganligini dalili bo‘la oladi.

Odamning ruhiy taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi haqida gapirar ekanmiz, yana bir muhim narsa ustida to‘xtab o‘tish kerak. Hozirgi kunda tez-tez **akseleratsiya** terminini ishlatiyapmiz. Xo‘sh, *akseleratsiya* bu nima? Akseleratsiya lotincha so‘z bo‘lib, «tezlatish» degan manoni anglatadi. Hozirgi kunda bolalarni ham

jismoniy, ham ruhiy jihatdan juda jadallik bilan rivojlanayotganliklarining guvohi bo'lib turibmiz. Xo'sh, buning sababi nima? Albatta, bunga turli fikrlar bor. Ayrim olimlar akseleratsiyaning sababini ilmiy-texnika bilan bog'lab tushuntirishga intilmoqdalar. Ularning fikricha, ilmiy-texnikaning juda jadal temp bilan rivojlanishi insoniyatning oldiga mislsiz ko'p informatsiyalarni idrok qilish va fikrda qayta ishlash talablarini qo'ydi. Bu talab o'z navbatida insonni har tomonlama, yani ham jismoniy, ham psixik jihatdan tez rivojlanishiga olib keldi. Yuqorida aytib o'tilgan olimlarning fikricha, *akseleratsiya* - bu XX asrning ikkinchi yarmiga xos bo'lgan hodisadir.

### 2.3.2. Tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar

Tarbiyali bo'lish - bu xulq-atvorni nazorat qilishdan iboratdir: bunday nazorat insonni yomon xatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qayg'ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo'ladi.

Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o'rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi: bola o'zini egotsentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag'batlantirilishi kerak? Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy jihatdan ijobiy extiyojlarni hosil qilishidir. *Agar* ***talim*** *shaxsning ongini shakllantirish bo'lsa,* ***tarbiya*** *uning ongsizlik sferasiga tasir etishdir.* Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos. Odatda 6-oylik bolalar unga g'amho'rlik qiladigan ota-onasiga bog'lanib qoladilar. Ota-onaning oldida bo'lish, ular bilan muloqotda bo'lish bolalarga juda yoqadi, ularning yo'qligi bolaga yoqmaydi. Ota-onaning g'amho'rligini bildiradigan so'zlar, xatti-harakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo'ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o'rganish jarayoni orqali sodir bo'lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g'amho'rlik va etibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo'llab-quvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish va yomon xulq-atvor uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz ko'rib chiqqan xulq - atvor hamma bolalarga ham taalluqli emas.

Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda anana va urf-odatlarning roli katta. Xalq urf-odatlari, ananalari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do‘stlik-birodarlik his-tuyg‘o‘larini rivojlantiradi. Bular o‘z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini o‘yg‘otadi. Mustaqil jamiyatning baxt-saodati yo‘lida halol mehnat qilish; jamiyat boyligini saqlash va ko‘paytirish yo‘lida har bir kishining tinmay g‘amho‘rlik qilishi; ijtimoiy burchni yaxshi anglash; jamiyat hayotida va shaxsiy hayotda xalollik va rostgo‘ylik, ahloqiy sofdillik, odamiylik va kamtarlik, milliy va irqiy adovtlarga aslo yo‘l qo‘ymaslik va shu kabilar tarbiya jarayonining muhim psixik jixatlaridir.

Tarbiya jarayonida g‘amho‘rlikning funktsiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g‘amho‘r ota - onaga ko‘proq taqlid qiladilar. G‘amho‘r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qo‘llab-quvvatlamaganda bola o‘z xatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi. Tarbiyaviy jarayon amalga oshirishda g‘amho‘rlik bilan bir qatorda yaxshi ko‘rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni - tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og‘zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvor uchun takdirlashni nazarda tutadi. Tarbiya jarayonining texnologiyasini quyidagicha sharhlash mumkin:

- Tarbiyalanuvchi alohida takrorlanmas individuallilik sifatida tushunmog‘ligi lozim. Uning ehtiyojlari tizimini aniqlash kerak.
- İjobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak. Ong ham, iroda ham xulq-atvor ierarxiyasini shakllantira olmaydi. Zotan, bir ehtiyojning o‘rnini faqat boshqa extiyojgina egallashi mumkin.
- Shu extiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya tarbiyachidan muloqotni ham emas, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi. **Aristotel** aytganidek: «Tarbiya uch narsaga ehtiyojni sezadi: *istedodga, ilmga, mashqqa*».

## 2-bob buyicha xulosalar:

Shunday qilib, «MUSTAQİL DAVR PSİXOLOGİYaSİ NEGİZİ – TARBİYaDİR» mavzudagi dissertatsiyamizning ushbu bobida kuyidagi masalalar tadqiq qilindi va aniqlandi:

- ♦ Hozirgi zamon talim-tarbiya jarayoni xususiyatlari
- ♦ Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari
- ♦ Xarakterni shakllantirish–shaxsni tarbiyalashning asosiy yunalishi sifatida
- ♦ Xarakter shakllanishiga tasir etuvchi omillar, shart-sharoitlar
- ♦ Tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar.

# **3-bob:** HOZİRGİ ZAMON YoShLARDAGİ XARAKTER SİFATLARİ PSİXOLOGİK XUSUSİYaTLARİNİ TADQİQ QİLİShNİNG TAJRİYBA NATİJALARİ

## 3.1. Eksperiment bosqichlari va metodlari

Agarda dissertatsiyaning **birinchi bobida** biz maxsus ilmiy-psixologik, pedagogik manbalar va adabiyotlarning nazariy taxlili asosida *psixologiya fanidagi xarakter muammosini* tadqiq qilgan bo'lsak, **ikkinchi bobida** esa *mustaqil davr psixologyasi negizi tarbiya ekanligi*ni isbotlagan edik, endigiga ilmiy tadqiqotimizning **uchinchi bobida** esa biz shu nazariy bilimlarni amaliyotta bevosita tekshirish uchun tegishli *tajriyba ishlari*ni olib bordik.

**Eksperiment (tajriyba)ning bosh maqsadi** bo'lib tadqiqot ishida ilgari so'rilgan ishchi gipotezani tekshirish va isbotlash bo'ldi, yaniy oliy maktabda taxsil olayotgan talaba yoshlarda ijobiy xarakter sifatlarini shakllantirish avallambor va faqatgina ularda milliy mustaqillik mafkurasi asosida ijtimoyi faollikni tarbiyalash bilan bevosita va uzviy bog'liqligi.

**Tadqiqotning ilmiy bazasi** sifatida Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, xususan, oliygoxning pedagogika fakulteti «pedagogika va psixologiya» talim yunalishi talabalari tasdiqlandi. Tadqiqotta pedinstitut professor-o'qituvchilari, kurator-murabbiylar hamda etakchi talaba yoshlar faol qatnashdilar. **«Tajriyba»** go'ruhlarda – 38 talaba, **«nazorat»** go'ruhlarda - 38 talaba qatnashdilar.

Eksperiment-tajriyba ishlari **3 bosqichta** olib borildi:

- ♦ diagnostik (aniqlovchi);
- ♦ korrektsion (shakllantiruvchi);
- ♦ nazorat (tekshiruvchi).

### *2.1.1. Psixologik - pedagogik eksperiment (tajriyba)ning birinchi – diagnostik bosqichining yakunlari.*

Eksperiment-tajriybada ishtirok etish uchun pedagogika fakulteti «pedagogika va psixologiya» talim yunalishidan ikki go'ruhdan talaba yoshlar saralab olindi: **«nazorat»** go'ruhlar (2-bosqich «har qaysida 19 talabadan) hamda **«tajriyba»** go'ruhlar (1-bosqich har qaysida 19 talabadan). Gipotezani tekshirish

hamda qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tajriybaning birinchi bosqichida kuyidagi **metod va metodikalar** utkazildi:

- ♦ Pedagogika fakulteti dekanati hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoyi xarakatining talim-tarbiya jarayoniga bog‘liq xujjatlarni *urganish va tahlil qilish metodi;*
- ♦ Pedagogika fakulteti talaba yoshlarining hulq-atvorini va faoliyatini *kuzatish metodi;*
- ♦ Tajriyba va nazorat go‘ruhlarida talabalarning *shaxsiy xujjatlarin urganish va faoliyat mahsulini tahlil qilish metodlari;*
- ♦ Tajriyba va nazorat go‘ruhlarida talaba yoshlarga oid *tarjimoyi xoli* va *anketa metodlari;*
- ♦ Tajriyba va nazorat go‘ruhlarida psixodiagnostik *test metodikalarin* qo‘llash;
- ♦ Metodikalar dissertatsiyaning ilovalarida keltirilgan.

Shunday qilib, o‘tkazilgan psixologik-pedagogik eksperiment – tajriyba xulosalari ishimizning gipotezasidagi hamda nazariy bo‘limidagi taqidlab utilgan talaba yoshlarning xarakter sifatlarini aniqlashda diagnostik ishlarning ahamiyati zarur ekanligini isbotladi. Bu esa o‘z navbatida tajriybaning ikkinchi bosqichidagi korrektsion ishlarning mazmunini aniqlashga yordam berdi.

### *2.1.2. Psixologik-pedagogik eksperiment (tajriyba)ning ikkinchi – korrektsion bosqichining yakunlari.*

Tadqiqotning bu bosqichida gipotezani isbotlash maqsadida biz pedagogika fakulteti talabalarida ijobiy xarakter sifatlarini shakllantirish uchun oldinan saralab olingan fakat **«tajriyba»** go‘ruhlarida qator korrektsion ishlarni olib bordik. İshlarning mazmuni qo‘yidagilardan iborat buldi:

- «Komil inson va uning sharqona fazilatlari» mavzusidagi *muammoli maruzalar* va *masalalar, so‘hbat, ijtimoyi trening, ishbilarmon uyinlari, rolli uyinlar* metodlar yordamida tadbirlar utkazildi;
- «Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash» mavzusida *konferentsiyalar* va *munozaralar* utkazildi;

- talaba yoshlarning o‘quv va ilmiy faoliyatiga oid *olimpiadalar, to‘garaklar, ko‘rik-tanlovlar va musobaqalar, breynshtorming, barcha interfaol mashq metodlaridan va h.* keng foydalanilgan xolda talabalarning hulq-atvoridagi, ijtimoyi faoliyatlaridagi mavjud kamchiliklarni bartaraf ettirish uchun uzluksiz mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

Eksperiment-tajriyba ishlari davlat pedagogik amaliyot mobaynida, bevosita dars jarayonida hamda darsdan tashqari vaqtlarida ham olib borildi. Tajriybalarni utkazishda pedagogika fakulteti «Kamolot» yoshlar ijtimoyi xarakati etakchilari, kurator-murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, fakultet dekanati raxbariyati va talaba yoshlar faol qatnashib o‘z xissalarini qo‘shdilar. Metodikalar dissertatsiyaning ushbu bobning navbattagi paragraflarida hamda ilovalarda keltirilgan.

*2.1.3. Psixologik - pedagogik eksperiment (tajriyba)ning uchinchi – nazorat bosqichining yakunlari.*

Psixologik-pedagogik eksperimentning uchinchi bosqich yakunlari kuyidagicha bo‘ldi. Bu bosqichta biz ilgari so‘rilgan ishchi gipotezamizning to‘g‘riligin hamda o‘tkazilgan korrektsion ishlarning yakunlarin aniqlash uchun nazorat tekshiruvlar, jumladan, yana bir marta anketalar, so‘hbatlar, testlar, mashg‘ulotlar, tanlovlar, uyinlar va h. olib bordik. Bu tajriybalar va **«nazorat»** va **«tajriyba»** go‘ruhlarda utkazildi. Bunda biz respondetlarning har xil go‘ruhlarida tadqiqot natiyjalarini taqqoslangan xolatidagi ulardagi farq xususiyatlarni aniqlash uchun hamda bir xil metodika buyicha utkazilgan tajriybadagi olingan har xil ko‘rsatkichlarning o‘z-aro bog‘liqligini aniqlash uchun *korrelyatsiya tahlil metodidan* keng foydalandik. **«Tajriyba»** go‘ruhlardagi talabalarning ko‘rsatkichlari malum darajada **«nazorat»** go‘ruhlardagi talabalarning ko‘rsatkichlaridan ***yuqori*** bo‘ldi. Bu natiyjalarni tajriyba-sinov utkazilgan kafedra va dekanatning pedagogik jamoalari ham tasqidlashdi.

## 3.2. Komil inson va uning sharqona fazilatlari

Komil inson tushunchasi manaviy barkamol inson tushunchasi bilan xamohangdir. Manaviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga etish mumkin

emas. Demak, manaviy barkamollikka intilish — bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Uchala tushuncha: **sog'lom avlod, manaviy barkamol, komil inson** — darajama - daraja chuqur mano kasb etadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, komil inson bo'lishning aniq cheki va chegarasi yuq. Bizning ko'hna tariximizda yuzaga kelgan, halq, mamlakat tarixida katta manaviy-ahloqiy tarbiya rolini uynagan tasavvuf komil inson nazariyasi haqidagi, uni tarbiyalash, voyaga etkazish haqidagi talimot va amaliyot sanaladi. Mazkur masalani tasavvuf talimotidan kelib chiqqan xolda bayon etishni maqsadga muvofik deb topdik.

Komil inson biz uchun idealdir. U barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlak ruhga to'tash, fayzu karomati serob, qalbi ezgu to'yg'ularga limmo-lim to'la pokiza zot. Komil inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislati va fazilatlarning ifodasi.

Komil insonlar jamiyatning tirik ajdodlaridir. Kishilar ularga qarab xushyor tortadilar, dunyo behudaligidan o'zlariga kelib, o'z qalblariga, o'zi qilayotgan ishlariga ramz soladilar, tavba-tazarru qiladilar. Komil insonlarning afolu-amoli insonlar diliga qo'vvat, ko'ziga nur bag'ishlagan. Komil inson haqida tasavvuf adabiyotida ko'p asarlar bitilgan. Ana shunday kishilardan biri XIII asrda yashagan **Aziziddin Nasafiy** bo'lib, **«İnsoni komil»** nomli risolasida komil insonga tarif berib, shunday yozadi: «Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda etuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin bilgilki, komil inson shunday insondir kim, unda quyidagi to'rt narsa kamolotga etgan bo'lsin: «yaxshi so'z, yaxshi fel, yaxshi ahloq va maorif». Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolgon, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi.

Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam komil inson martabasiga kutarila oladi. Komil inson — insonlarning eng mukammali, eng oqili va donosi. Komil inson - insonlar jamiyati ichidan etishib chiqadigan mutabar zotdir. İnsonlar komillikka ahloqiy - manaviy poklanish jarayonida erishadilar.

Komillikning belgisi xaqiyqat yulidan borib, halqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga foyda keltirsa,

yomonlarni to‘g‘ri yulga solsa, haqiyqat yulida fido bulsa, u shuncha komil buladi. Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga etkazish haqida musulmon sharqi ahloqi tarixida inson xayoti uchun dasturulamal, qo‘llanma vazifasini utagan ko‘p pandnomalar, halq kitoblari yaratilgan.

Bu asarlarning ko‘pchiligida odil shox va adolat, halollik, soflik, poklik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, insonparvarlik, marifatli bo‘lish kabi insonning sharqona fazilatlari berilgan. Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlari sanab utilgan. Bular qatoriga ulug‘ mutafakkir qo‘yidagilarni kiritadi: tavba, halol lukma bilan qanoatlanish, o‘z kasbidan topib kun o‘tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o‘zini kam deb bilish, xatto farzandlari, xizmatkorlariga qo‘pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo‘lish — yahshi, mo‘loyim tilli bo‘lish, rahmdil bo‘lish, sahiy bo‘lish, mard bo‘lish, halollik, ho‘shhulqli bulish, rizo-rozilik bilan kun utkazish, sabrli bo‘lish, sadoqatli, rahmli bo‘lish, riyozat chekishdan qo‘rkmaslik va boshqalar.

Shu tariqa utmishda, komil insonning o‘ziga xos ahloq kodeksi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu sifatlarga ega bo‘lish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Komil inson haqidagi g‘oyalar katta ijtimoiy-ahloqiy ahamiyatga ega bo‘lgan. U insonni sharafli, ezgulik va buyuk hayr ruhida tarbiyalash, mehru-muxabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Har zamon, har lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz kabi ishlar, nojuya xatti-xarakat va qiliqlardan saqlanishga ko‘maklashdi, ularda imon va vijdon - binosining paydo bo‘lishini taminlab keldi.

Komil inson imon va etiqodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli. Biz hammamiz shunga intilib yashamog‘imiz lozim. Mustaqil O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida imonli bo‘lish, halollik va poklik, vijdonli va diyonatli bo‘lish nechog‘lik zarur ekanligi hammamizga ayon. Mana shuning uchun ham Prezidentimiz manaviy barkamol inson tarbiyasida yoshlarimizni elini, Vatanini sevuvchi komil inson qilib tarbiyalash ishiga alohida ahamiyat berib kelayotir. Yurtboshimizning kuyidagi tarifida komil insonning asosiy xususiyatlari xar taraflama chuqur va teranlik bilan bayon qilib berilganligi diqqatga sazovordir: «Komil inson deganda, - deb yozadi İslom Karimov, — biz

avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, marifatli kishilarni tushunamiz».

Uning shakllanganligi darajasini xarakterlovchi eng muxim fazilatlar esa kuyidagilardir: aqliy zuqqolik, huquqiy komillik, ahloqiy etuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, yuksak madaniy, manaviy saviya, professional iftihor, milliy va umuminsoniy g'urur va boshqalar. Yuqoridagilarni hozirgi mustaqil xayotimiz, turmush tarzimiz, kishilarning, ayniqsa, yoshlarning intilishlari bilan bog'lab komil inson chizgilariga qo'yidagi xislat va fazilatlar kirishini umumiy tarzda bayon etishimiz mumkin.

**Komil insonning umumiy xislatlari:** yoqimlilik, ko'rkamlik, jozibadorlik, salobatlilik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ulug'sifatlik, o'ziga xoslik, etuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar.

**Komil insonning ahloqiy fazilatlari:** insonparvarlik, do'stlik, g'amho'rlik, jonkuyarlik, samimiylik, odamiylik, bolajonlik, imonlilik, fidokorlik, ho'shmuomalalik, boadablik, iltifotlilik, kechirimlilik, mehmondustlik, halollik, to'g'rilik, diyonatlilik, xaromdan hazar etish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va hokazolar;

**İshbilarmonlik xislatlari:** ishchanlik, tirishqoqlik, serharakatlilik, masuliyatlilik, insoflilik, halollik, malakalilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, tadbirkorlik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, tamasizlik, tavakkalchilik va boshqalar;

**Zo'kkolik, idroklilik fazilatlari:** zehnlilik, bamanilik, xotirjamlik, sog'lom fikrlilik, donishmandlik, sezgirlik, zakovatlilik, topqirlik, notiqlik, tanqidiylik, dadillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik kabilar;

**Sobitlik xislatlari:** faollik, qatiyatlilik, tezkorlik, jo'shqinlik, sabotlilik, bir so'zda to'rishlik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, jiddiylik, nafsni tiyishlik, o'zini yo'qotmaslik, sovuqqkonlik, o'ziga talabchanlik, kamsuqumlik, o'zini uzi idora eta bilish va boshqalar;

**Ehtiroslilik xislatlari:** ko'tarinkilik, tantanavorlik, ko'lib to'ruvchanlik, hazinlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, olijanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, halolilik, xijolatpazlik, iffatlilik va hokazolar.

Ayni shu xislat va fazilatlarni yoshlarimiz ongiga singdira borilishi ularni barkamol, sog'lom va komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, komil inson, eng avvalo, fuqarolik bo‘rchini alo darajada xis etadigan shaxs bo‘lishi darkor. Sodda qilib aytganda, har qaysi komil inson, har birimiz: *«Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?»* deb emas, balki: *«Men o‘zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?»* deb o‘ylashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak buladi. Bu komillikka davogar inson uchun asosiy mezondir.

## 3.3. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

Malumki, milliy istiqlol mafkurasining negizida yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash yotadi. Mustaqillik ruhida tarbiyalash yoshlarni milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy ong, o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik to‘yg‘ularini shakllantirishni taqozo qiladi. Shu boisdan milliy istiqlol mafkurasi negizida vatanparvarlik g‘oyalari ilgari so‘rilmokda. Prezidentimiz İ.A.Karimov «Mustaqillikni mustahkamlash asosan 4-ta negizga asoslandi», - deb ko‘rsatadi. Yani:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning manaviy merosini urganish va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlik. …

**Vatanparvarlik** – umuminsoniy qadriyatdlarga sodiqlikning asosiy tamoyillaridan biri xisoblanadi. «Vatan» arabcha so‘z bo‘lib, uzbek tilida «Ona yurt» degan manoni anglatadi. Vatanga muxabbat, yurtga muxabbat har bir millat kishisiga xos bo‘lgan muqaddas qadriyatdir. Vatanparvarlik har bir kishida o‘z uyiga, to‘g‘ilib usgan yurtiga, ota-ona va opa-ukalariga bulgan munosabatida aks etadi. Vatanparvarlik – bu umuminsoniy qadriyatlarga xos bo‘lib, u sadoqat bilan xizmat qilish, uning sarxadlarini tashqi dushmanlardan ximoya qilish, uning mustaqilligi, obodligi, tinchligi, osoyishtaligini saqlashda faol ishtirok qilmoqdir.

O‘zbekiston fuqarolarining vatanparvarligi ularning Vatanni xis qilishida, Vatanga bo‘lgan tuyg‘usida ifodalanadi. «Vatan xissi – shu Vatanning egasi

bo‘lmish xalqni bilishdan, uning qadriga etishdan, nimalarga qodirligini tan olishdan, buyukligini etirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak. Birini xis uchun ikkinchisini bilmoq kerak. O‘zbekiston deganda o‘zbek xalqini, o‘zbek xalqi deganda O‘zbekistonni to‘shunmoq kerak. Birisiz ikkinchisini xis qilish mutlako mumkin emas» **(İ.A.Karimov).**

Darxaqiqat, Vatan to‘yg‘usini o‘zida mujassam etgan kishigina jamiyat va xalq manfaati, uning baxti-saodati uchun ko‘rashadi. O‘zbekistonda yashovchi davlatimizni umumbashariyatga o‘zining faolligi bilan tanishtiradi va xalqlarimiz urtasida inoklik va o‘zaro xurmatni mustahkamlashda yagona maqsad sari intilmog‘i kerak. Ayniksa, yoshlarni, usib kelayotgan yosh avlodni yangilanayotgan demokratik, insonparvarlik jamiyatga munosib qilib tarbiyalash, maktab, bog‘cha, kollej faoliyati davr talablari, yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishini talab kiladi. Shuning uchun chuqur masuliyatni xis qiluvchi, mustaqil fikrlaydigan Vatan tuyg‘usi bilan xamnafas bo‘lib yashaydigan yoshlarni tarbiyalash o‘qituvchi, tarbiyachilarning asosiy vazifasidir.

Vatanparvarlik – umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan sodiqlikning negizi sifatida xayotimizni farovon va erkin qilish yulida, yurtimiz uchun, xalqimiz uchun jon fido etishga tayyor bo‘lgan yoshlarni voyaga etkazishni talab qiladi. Qadimgi yunon adiblaridan biri «Vatan shaniga» asarida: «Mening bu gaplarim g‘oyat eski gapdir, lekin haqiqat shunday: o‘z otasini xurmat qilmagan farzand o‘zganing otasini ham xurmat qila olmaydi, o‘z Vatanini sevmagan kishi o‘zga Vatanni qadrlay olmaydi»,- deb yozgan edi. Bu gaplar hozir naqadar zamonaviydir. **Vatan** – bu odamlar to‘g‘ilib usgan, tarbiyalangan, mexnat quvonchini totgan, shu odam mansub bo‘lgan xalq tarixi bilan bog‘langan, hamda tarixdan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy muxitdir.

Vatanparvarlik vatanga muxabbat, unga sodiqlik, uning manfaatlari yulida xizmat qilishga tayyor turish demakdir. Vatanparvarlik ijtimoiy, tarixiy, ahloqiy xis-to‘yg‘u sifatadi odamning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo buladi. İjtimoiy jamoa tuzumida vatanparvarlik fakat o‘z urug‘lariga, ona erga, ona tilga, urf-odatlarga bog‘lik xis bo‘lgan bo‘lsa, sinflar paydo bo‘lishi bilan vatanparvarlik g‘oyalari chuqurlashib, ijtimoiy xayot tobora ko‘proq soxalariga chuqurroq kirib

keldi. Davrlar o‘tishi bilan bu to‘yg‘u buyuk qudratga aylandi. Buyuk mutaffakirlar: «Biz to‘g‘ilgan yurtimizdan uzoq ketsak, bizni tortib kelaturg‘on quvvat o‘z vatanimizning, ona to‘proqning mehr-muxabbatidir». Vatanparvarlik tufayli Vatanimiz jahonga tanilmoqda. Masalan, sportdagi, sanatdagi yutuklarimiz.

Vatanparvarlik to‘yg‘usi tarbiyasi ota-onaga, o‘z mahalla, qishlog‘iga, shahar, viloyat, jo‘mhuriyatiga bo‘lgan cheksiz muxabbatdan, uning tarixi va madaniyatiga bo‘lgan mislisiz va tengsiz xurmat va sadoqatdan boshlanadi. Vatan to‘yg‘usi kichkina odam ko‘z ungida kurayotgan narsadan qayil qolishda, uni xayratlantiradigan va qalbida aks sado beradigan narsalardan boshlanadi. Kattalarning vazifasi bola oladigan ko‘plab taasurotlardan unga eng tushunarli bo‘lganlarini: eng yaxshi kishilarni, jona-jon ulka tabiati va xayvonot dunyosi, kishilarning xalq farovonligi, Vatanning gullab yashnashi yulidagi mehnati, urtoqlik, o‘zaro yordam va boshqalarni tanlab berishdan iboratdir.

Jona-jon ona tabiati Vatanga muxabbatni tarbiyalashning ko‘chli omillaridan xisoblanadi. Uning go‘zalligi bilan zavqlanish, tabiat dunyosiga extiyotkorona munosabatda bo‘lishdan, inson mehnatining tabiatdagi o‘zgaruvchanlik rolini to‘shuntirishgacha – jonajon ulkaga muxabbatni shakllantirishning manbalaridir. Bolalikda jonajon tabiat haqida xosil qilingan erkin taassurotlar inson xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Chunki uning obrazlarida Vatan o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Odam Vatanga bo‘lgan muxabbatni o‘zi to‘g‘ilgan va usgan oilasi, bolalar bog‘chasi, maktabi, bolalar bilan uynadigan o‘yinlari va joylari bilan bog‘laydi

Vatanga muxabbat – eng chuqur ijtimoiy xislardan biridir. Bu xis maktab yoshdagi bolalarda kattalar tomonidan bolalar ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazligini etiborga olgan holda malum izchillik tarbiyalab borish lozim. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda Vatanga muxabbat xissini ularga yaqin va tanish bo‘lgan aniq faktlar, yorkin misollar orqali tarbiyalab boriladi. Kichkina go‘ruhda Vatanga muxabbat xissi o‘z uyiga, bog‘chasiga, tarbiyachiga muxabbatni tarbiyalashdan iborat bo‘ladi. Bolalar ota-onalari va pedagoglar ularga qanday g‘amhurlik qilayotganini kuradilar va xis etadilar.

Natijada bolalarda ularga bo‘lgan muxabbat yanada ortadi, ularning g‘amxurligi va ximoyasiga ishonch xosil qiladilar.

Vatanparvarlik va baynalmillalchilik ahloqiy tarbiyada alohida urin tutadi. Xadisi - sharifda «Vatanni sevmoq iymondandir», deb bejiz aytilmagan. Tarbiyachi va o‘qituvchilar bolalarda Vatanga muxabbat, fahrlanish, xalq yutuklaridan fahrlanish, uning dushmanlariga nafrat to‘yg‘ularini tarbiyalashlari maqsadga muvofiqdir.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va uni shakllantirishda:

- ♦ Ona-Vatanga muxabbat, uni sevish, ezozlashga urgatish;
- ♦ Mustaqil O‘zbekiston tushunchasining mohiyatini o‘quvchilar ongiga singdirish;
- ♦ Yoshlarni xalqimiz ananalariga, udumlariga, tili va madaniyatiga, ruhiyatiga xurmat bilan qarashga urgatish;
- ♦ Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan manaviy meroslarni asrab avaylash, ularning tarixini bugungi kun uchun ahamiyatini idrok etish;
- ♦ Yoshlarda sog‘lom ko‘ch, sog‘lom tafakkur, iymon-etiqodni uyg‘otish;
- ♦ Vatan oldidagi masuliyat, milliy manfaat uchun ko‘rashning mohiyatini anglash;
- ♦ O‘quvchilarda unib usgan yurtga, voyaga etkazgan ota-onasiga, talim-tarbiya bergan ustoziga tazim qilish malakasini shakllantirish lozim.

## 3.4. Xarakterni o‘rganish buyicha amaliy metodikalar

Yoshlar shaxsini o‘rganish usullari bilan tanishish va uni o‘rganish, pedagogik amaliyotda qo‘llay olish har bir tarbiyalanuvchining yanada kamol topishiga, uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlariga mos tushuvchi muvaffaqqiyatli ishlarni amalga oshirishda muxim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xozirgi davrda talabaning barcha imkoniyatlarini muvaffaqqiyatli tarzda jalb etib bo‘lmaydi. Chunki, talaba tomonidan bajariladigan har bir o‘quv topshirig‘i, avvalo uni ijtimoiy jihatdan qondirmog‘i va mustaqil ijodiy faoliyatga chorlamog‘i lozim. Aks holda mazkur talabaning ijtimoiy shaxs

sifatidagi taraqqiyoti birmuncha past saviyada bo‘lishi va bu esa jamiyatga ham, qolaversa mazkur talabaning rivojlanishiga ham birmuncha salbiy tasir ko‘rsatishi tabiiy. Shunday ekan talim-tarbiya jarayonida har bir talaba shaxsini o‘rganish, uni pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilish va ijobiy tomonga yo‘naltirish yo‘llarini izlash pedagog-o‘qituvchi faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Shu bois, hozirgi kunda yoshlar shaxsini xarakterini aniqlashda turli hil metodikalar ishlab chiqilgan. Magistrlik dissertatsiya ishimiz bo‘yicha olib borilgan tajribamizda talaba yoshlarda xarakter sifatlari rivojlanganlik darajasini diagnostika qilishda bir necha metodikalardan foydalanildi. O‘tkazilgan tajribalardan shu narsa malum bo‘ldiki, tanlangan metodikalarni ularda qo‘llash yuqori samara berdi. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, talaba yoshlarda xarakter sifatlarini diagnostika qilish orqali, ularda ushbu jarayon samaradorligini oshirshimiz mumkin. Endi tadqiqot jarayonida foydalanilgan metodikalarni ko‘rsatib o‘tamiz.

Test: «QADAMLAR va FE'L – ATVOR»

Odamning yurishiga qarab uning fel-atvori qanaqaligini bilish mumkin ekan. Odamning qadam olishi, uning faqat yoshiga bog‘liq emas. Balki jismoniy holatiga, temperamentiga ham bog‘liq ekan.

Sekin va ishonchsiz qadam tashlaydigan odamlar - o‘ziga etibor qaratishni xohlamaydigan, o‘z fikru hayollari bilan band bo‘lgan odamlar.

Tovonini ichkariga qarab tashlaydigan odamlar - juda quvnoq, hamma narsadan xabardor bo‘lib turishni xohlaydigan, kirishimli kishilar.

Poshnasini qarsillatib urib, shovqinli yuradiganlar - o‘zini tuta olmaydiganlar, bazan beandishalik qiladigan kishilardir. Bu yurish o‘z-o‘ziga ishonchsizlikdan dalolatdir.

Bir maromda, vazmin qadam tashlaydiganlar - xotirjam, engil-elpi hayollarga berilmaydigan kishilar.

Agar odam yurganda qo‘llarini siltab yursa - bu uning serharakatligidan, intiluvchanligidan va sobitqadamligidan dalolatdir. Bundan tashqari engil qadam tashlasa bilaveringki bunday kishilar bekamu-ko‘st, barkamol odamlar.

Og‘ir qadamlar tashlab, yurganda qo‘llarini qimirlatmasdan, osiltirib yuradiganlar - irodasiz va hayotdan zerikkan, qiynalgan kishilardir.

Raqs tushayotgandek qadam tashlaydiganlar - jiddiy bo‘lmagan va hamma vaqt vada berib so‘zining ustidan chiqmaydigan kishilar.

Mayda qadamlar bilan yuradigan kishilar o‘ta rasmiyatchi kishilardir va ular kirishimli emas.

Xullas, hamrohingizning qadam olishiga etibor bersangiz, uning fel-atvori haqida ko‘proq malumot olishingiz mumkin ekan.

## Test: PSİXOGEOMETRİK ShAKLLAR va ShAXS XARAKTERİ

Quyidagi 4 guruhga bo‘lingan 16-ta shaklga etibor bering. Har bir guruhdan o‘zingizni ruhiy holatingizga mos kelgan bitta shaklni tanlang...




А – 4 Б – 8
В – 2 Г – 10




А – 10 Б – 8
В – 2 Г – 4




А-10 Б-8
В-2 Г-2




А-10 Б-8
В-6 Г-6

## NATİJALAR:

**8-13.** Sizning fel-atvoringiz qanaqa bo‘lishi, birinchi navbatda, atrofdagilarga bog‘liq. Tez tushkunlikka tushasiz, tez ilhomlanasiz ham. Ko‘nglingizga xush kelmagan yumushni bajarishingiz qiyin. Atrofdagi vaziyat sizga juda kuchli tasir qiladi. Sizni o‘z qaror va echimingizning yagona sohibi deyish mushkul. Sizda his-tuyg‘uga beriluvchanlik kuchli. Xullas, sizni boshqaruvchi narsa – kayfiyat.

**14-20.** Garchi siz «ko‘pchilik tarafida», «hamma qatori» bo‘lsangiz ham, har holda o‘z o‘rningiz va yo‘nalishingizni topmoqqa intilish bor. O‘zingizga munosabatingiz tanqidiy. Shuning uchun atrofdagilarda aniq kuchli dalil bo‘lmasa, sizga tasir o‘tkazish qiyin. O‘z nuqtai nazaringiz o‘zingizning ziyoningizga ekanligini fahmlab turgan bo‘lsangiz, undan voz kecha olishga qodirsiz.

**21-27.** O‘zingizni benuqson va masum hisoblaysiz. Shunday bo‘lsa-da, tashqi tasirdan butunlay himoyalangan emassiz. Hayot oldingizga qo‘yayotgan vaziyatlar bilan o‘z etiqod va dunyoqarashlaringiz orasida o‘rtacha, maqul yo‘lni topishga intilasiz. Aynan ana shu omil sizga to‘g‘ri echim va qaror qabul qilishga yordam beradi.

**28-34.** Siz uchun fikr va shiorlaringizdan voz kechish oson emas. Atrof tasiri qanchalik kuchaysa, sizning qarshiligingiz ham o‘z navbatida oshadi. Biroq aslini olganda, sizning sobit va mahkam turishingiz ortida nafaqat o‘z kuchiga ishonch, balki favqulodda noxush vaziyatga tushib qolishdan havfsirash bor.

**35-40.** Agar biror echimga kelgan bo‘lsangiz bas, hech kim sizni bu fikrdan qaytara olmaydi. O‘z maqsadingizga hech bir sustkashliksiz erishasiz. Biroq sizni yaxshi tanigan shaxs fel-atvoringiz va hatti-harakatlaringizni mohirona va sezdirmay yo‘naltira olishi mumkin. Shuning uchun mumkin qadar qaysarlikni kamaytirib, ziyraklikni oshiring.

## Test: ShAXS TİPLARİGA PSİXOLOGİK TAVSİF

### (geometrik shakllar asosida)

**Psixogeometriya –** shaxsni o‘rganish uning xususiyatlarini tahlil qilishning qulay usulidir. A.Alekseev va L.A.Gromovalarning fikricha bu metodika:

- Shaxs tipini tezkor aniqlaydi.
- Shaxs xususiyatlari va hatti harakatining o‘ziga xosligini tushunarli, aniq izohlab beradi.
- Tipik holatlarda shaxsning o‘zini tutishi bo‘yicha hatti-harakatlar tizimi qanday bo‘lishi haqida malumot beradi.
- Psixogeometriya usul sifatida Amerikada shakllangan, uning muallifi rahbar xodimlarni ijtimoiy – psixologik tayyorlash bo‘yicha mutaxassis **Syuzen Dilinger** hisoblanadi. Bu metodikaning aniqlik darajasi **85%** gacha tashkil etadi. (Sizga havola etilgan test milliy sharoitga moslashtirilgan).

1 2 3 4 5



**Ko'rsatma;** Qog'ozga chizilgan 5-ta geometrik shakllarga qarang (kvadrat, uchburchak, doira, zigzak, to'rtburchak). Mazkur shakllardan birini tanlang (faraz qiling bu shakl Siz!). O'z shaklingizni his qilishga harakat qiling. Agar bunga qiynalsangiz, sizni ko'proq qiziqtirgan shaklni tanlang va uning nomini birinchi yozing. Endi qolgan shakllarni yoqtirganingiz darajasiga asosan tartib bilan yozib chiqing.

Demak, ishning eng qiyin qismi tugadi. Sizning subektiv tanlagan asosiy shaklingiz harakter xususiyatlaringiz va hatti-harakatlaringiz mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Boshqa shakllar esa doimiy sifatlaringiz to'g'risidagi malumotlarni to'ldiradi. Oxirgi shakl o'zaro munosabatlar siz uchun og'ir kechadigan kishilar tipiga tegishli. Birorta ham shakl sizga yoqmasligi, yoki to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Shunda sizning shaxs xususiyatlaringizni ikki, hatto uchta shakl guruhlari asosida izohlashga to'g'ri keladi.

## «KVADRAT»

Kvadratlar eng avvalo o'zlarining mehnatsevarligi, sabr, toqat bilan boshlagan ishni oxiriga etkazish xususiyatlari bilan ajralib turadilar. Sabr-bardoshlilik, chidam kvadratni o'z sohasining usta mutaxassisi bo'lib etishishiga olib keladi. Yangi informatsiyaga (axborotga) bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi ham bunga yordam beradi. Kvadratlar har xil malumotlarni to'plab yuradilar, ularni tartibga solib, sistemalashtiradilar, shuning uchun ular zarur informatsiyani darhol topib berishlari mumkin.

Darhaqiqat Kvadratlar o'z sohasiga tegishli malumotlar manbai hisoblanadilar. Ularning yana bir kuchli tomonlari, fikriy tahlil hisoblanadi. Agar siz o'zingiz uchun kvadratni tanlagan bo'lsangiz, sizda chap yarim sharlar faolroq hisoblanadi, yani sizda informatsiyani ketma-ket tartib bilan qayta ishlash izchil a-b-v-g va h. tarzda kechadi.

Kvadratlar natijani taxminan emas, aniq hisoblaydilar. Ular hodisa va voqealarga juda etiborli. Tartib, intizomni xush ko'radilar. Kvadratlar rejali, aniq maqsadli hayotni yoqtiradilar, voqealarning odatiy kechishidagi o'zgarishlarni yoqtirmaydilar. Ular doimo odamlar va atrofidagi narsalarni tashkillashtiradilar (tartibga soladilar). Bu xususiyatlar kvadratlarni yaxshi ish yurituvchi, ijrochi bo'lishlarini taminlaydi. Lekin, afsuski ulardan yaxshi ish beruvchi, menedjer chiqishi qiyinroq. O'ta mayda-chuydalarga etibor, aniqlik kiritish uchun qo'shimcha malumotlar asosida qaror qabul qilish, ularning tezkorligini susaytiradi. O'ta tartiblilik, qonun-qoidaga aniq rioya qilish ularda o'ta kuchlidir. Qaror qabul qilishda ayniqsa, tavakkal ish tuta olmaydilar. Kvadratlardagi sovuqqonlik, hissiyotga berilmaslik, aniqlilik har xil odamlar bilan aloqada bo'lishini qiyinlashtiradi.

## «UChBURChAK»

Ular harakatchan, kuchli shaxslar. O'z oldilariga aniq maqsadlar qo'yadilar va odatda ularga erishadilar. Eng asosiy narsani ilg'ab olish ularning harakterli belgilaridir.

Uchburchakning etakchi sifati birinchi bo‘lishga intilishdir. Uchburchaklarda kvadratlar kabi faollik chap yarim sharlarga to‘g‘ri kelib, ular yaxshigina intellekt sohibidirlar. Vaziyatni tez va chuqur tahlil qilish va shu asnoda masalaning mazkur sharoitdagi eng to‘g‘ri echimini topishga qodirdirlar. Shu sababli uchburchaklardan juda yaxshi rahbarlar, menedjerlar chiqadi. Ular o‘z ishlari va qo‘l ostidagilar mehnatini «yuqori lavozimdagi boshliq» etiboriga qanday taqdim etishni bilishadi.

Uchburchaklar o‘zlarini doimo haq deb hisoblaydigan, o‘ziga ishongan odamlar. Doimo haq bo‘lishga kuchli ehtiyoj, boshqaruvga intilish hissi, masalani faqat o‘zi uchun emas, o‘zgalar uchun ham hal qilishga harakat qilish uchburchaklarni doimo boshqalar bilan bellashishga, kurashga davat qiladi. Bunday shaxslar dunyoqarashida omad, g‘alaba, yutuq kabi tushunchalar etakchi o‘rinni egallaydi.

Ular ko‘pincha tavakkalchi, toqatsizdirlar, ayniqsa qaror qabul qilishda ikkilanadigan kishilarga toqatlari yo‘q. Uchburchaklar o‘z xatolarini tan olishni yoqtirmaydilar. Juda qiyinchilik bilan o‘z xatolariga iqror bo‘ladilar. Ko‘pincha ular o‘z so‘zlarida turib oladilar. Etirozni qabul qilmaydilar va o‘z bilganlaricha ish tutadilar. Shu qatorda ular asosiy maqsadlariga olib boradigan narsalarni, foydali axborotlarni tez singdirib oladilar.

Uchburchaklar shuxratparast, karerist, jamiyatda yuqori darajaga erishishga harakat qilishadi. İshga kirishishdan oldin va qaror qabul qilishda uchburchaklar o‘z oldilariga quyidagicha savol qo‘yadilar: «Xo‘sh men bundan qanday manfaat ko‘raman?». Ular foyda keltiradigan ishni yuz chaqirimdan sezishadi va uning uchun raqiblari bilan ayovsiz kurashga tayyor bo‘lishadi. Biroq ularning asosiy salbiy sifatlari kuchli egotsentrizm, o‘ziga yo‘nalganlikdir.

Uchburchaklar hokimiyat cho‘qqisiga intilish yo‘lida har qanday vositadan foydalanishga tayyor, o‘z maqsadlariga erishishda boshqalarning xohishlarini hisobga olmagan holda, ularning boshi ustidan yurib borishdan qaytmaydigan kishilar toifasidandir. Uchburchak hamma-yu hammani o‘z izmiga solishga harakat qiladi. Ularsiz hayot o‘z keskinligini yo‘qotgan bo‘lardi.

## «AYLANA»

Aylana – bu mutanosiblikning falsafiy timsolidir. Kim bu shaklni tanlagan bo‘lsa, u yaxshi shaxslararo munosabatga astoydil intiladi. Odamlar va ularning rohat-farog‘ati aylana uchun oliy himmatdir.

